

Qishloq kayvonilaridan biri Hamidqul oqsoqol andak iddaoli, andak zardali ohangda raqibi yakkaqayrog'ochlik Asilbekning nomini tilga olmaguncha Omonali tayinli biror gap aytmadi, tagidagi po'stak junini barmoqlari bilan tarab, tortqilab hardamxayol bir alfozda miq etmay o'tiraverdi. Negaki, uning nazarida, oqsoqolning diydoyosi e'tibor berishga arzimasdi. Suruviga yilda bir yirtqich oralasa oralabdi-da, endi shunga shuncha ota go'ri qozixonami.

U to'rda qo'r to'kkanicha, tinmay chakak urayotgan oqsoqolning qavatidagi ikki cholga hamda poygakroqda choy quyib o'tirgan o'gay ukasi Berdiqulga manglayi ostidan birin-sirin ko'z tashlarkan, ularning yuziga soya solib turgan mahzunlikdan g'ashi keldi. Odam bolasining fe'li juda qiziq-da, deb o'yladi po'stak junini tortqilashda davom etib, o'zi-ku osmondagini otib, suvdagini tutib, yerdagini qoqib yeydi-yu, lekin adashgan biron-bir jondor bexos qo'toni yonidan o'tib qolar bo'lsa, darrov dodlab, olamni buzadi. Bu kamdek, qo'lga yaroq tutadi, yaroq tutishga chog'i yetmasa, yugurgilab oldingga keladi. Yaxshiyamki, jonivorlarning baxtiga tog'-toshu o'ru qir bor, aks holda odamzodning bu qadar qirriqligidan yovvoyi jonzorlarning birortasi ham omon qolmasdi, qirilib-sirilib ketardi bari. Biroq bu o'ylarini u tiliga chiqarmaydi, bundan biror naf yo'qligini allaqachon fahmlab yetgan. Va shuning uchun ham sukutni o'ziga esh tutib, churq etmaslikka urinadi.

U talqon yutgani sayin esa Hamidqul oqsoqolning fig'oni ko'kka o'rlaydi.

Agar suruvga qoplon emas, birorta jondor oralaganidami, mana shu oppoq soqolim haqqi-hurmati, g'ing demasdim, deydi u moshguruch soqolini namoyishkorona tutamlab. Kelgan balo-qazo shunga ursin deb qo'ya qolardim. Ammo qorli tovdan berman enmaydigan qoplone nimasi?! Bu olachipor maxluq qachondan beri bu tomonlarga o'rlaydigan bo'lib qoldi? Undan bizni himoya qila oladigan bironta mard bormi o'zi bu qishloqda! Eslasam, haliyam etim titraydi, toshlar orasidan ilonday sirg'alib chiqdi-yu, ko'z oldimda semiz bir qo'zimni o'marib ketdi! Menday bir go'rsuxtani qo'lidan nimayam kelardi, dod degancha qolaverdim! Qishloq yaqinidagi suruvga bo'ri emas, odatda, bu tomonlarga sira dorimaydigan qor qoplonining hujum qilishi hech xayolga kelmaydigan hol edi. Bundan hamma jiddiy tashvishda edi. Ayniqsa, Hamidqul oqsoqol, go'yo qoplon erta-indin butun suruvini yeb-yutib qo'yadigandek, o'tirgani joy topolmay qolgandi.

Biroq u kelganidan beri qancha oh-voh qilmasin, qarshisida mum tishlab o'tirgan yigitning biror mo'yi qilt etmasdi. Ana, kesak yanglig' o'tiribdi, tanasi boshqa dard bilmas qabilida, ostidagi po'stak junini tarab, tortqilab. Bundan oqsoqolning yomon jini qurishadi. Omonalini boplab to'zitiv, changitib so'kib tashlagisi keladi.

U xuddi so'kishga bahona qidirdiganday, bir zumga tin oladi. Yigitga boshdan-oyoq sinchkov nazar tashlaydi. Shunda Omonalining qiyofasida olis o'tmishda qolib ketgan bir siymo Saragulning o'ktam ruxsori ko'rganday bo'ladi. Qoshidagi yigit ko'rinishda otasi Sarkor lochinga tortgan esa-da, lekin nimasi bilandir enasi Saragulga ham o'xshab ketardi. U yigitga yanada sinchkovlik bilan razm soladi.

Ha, uning qimtilgan lablari, xiyol chimirilgan qoshlari va yana nimasidir, qo'yib qo'yganday enasiniki edi. Bu o'xshashlikni dabdurustdan payqab qolgan oqsoqolning ichi dirillab, ko'ksida necha yillardan buyon dimlanib, mog'orlanib yotgan ko'hna alamlari tuyqusdan qayta bosh ko'targanini sezadi. Bu yetmagandek, tanida o'sha tanish azobli og'riqni bot his etib, xuddi yumshoq joyidan nimadir chaqqanday, o'tirgan joyida bejo-bejo tebranib qo'yadi.

O'shanda o'ta nozik joyidan tepki yeb, qalin archalar orasida kuchala yegan itday g'ingshib yotarkan, endi o'lsam kerak, degan o'yga borgandi. Yo'q, kuni yetmagan ekanmi, o'lmadi. Lekin o'lgandan batttar bo'lib, necha yildirki Saragulning yuziga tik qarayolmay, undan nari qochib yurdi. Saragulning qazosi yetganida esa, o'zida yo'q quvondi. Ammo Saragul tog'da yuz bergan voqeani archalar orasiga manguga ko'mganday, u ham quvonchini ichiga yashirdi. U ming yomon ko'rsa-da, hozirgacha baribir marhumaga tan berib keladi. To'g'ri-da, agar uning o'rnida boshqa bir ayol bo'lganida bormi, bu hodisani oqizmay-tomizmay eriga aytardi, xeshiga aytardi, el-ulusga sharmandayu sharmisor qilardi.

Saragul esa, shayton izmiga bo'ysunib, hirsiga erk bergan kap-katta erkakni yolg'iz o'zi osongina tinchitgani yetmagandek, bu haqda birovga churq etmadi, ayolligiga borib qarg'anmadi, bor-yo'g'i, keta turib, archa tagida yetti bukilib, "enam" lab yotgan erkakka shunday bir qarash qilganki, oqsoqol o'zining nechog'li tuban, nechog'li jirkanch kimsaligini uning shu birgina qarashidanoq anglab yetganday bo'lgan.

U hali-hanuzgacha bir narsani to'la idrok etolmaydi: qiziq, Saragul shunchalar kuchlimidi, yo yaratgan Egam ojizaning badnom bo'lishini istamagani bois, ayolga bir lahzalik kuch-qudrat ato etdimikan? Agar Xudo chindanam Saragulni siylagan bo'lsa, nechun unda uning o'zini shayton izmidan xalos etmadi? Yo iymon-e'tiqodi nechog'lik to'kisligini shu yo'l bilan sinab ko'rmoqni istadimikan? Yo iymoni azaldan kemtikligini bilib, jazo tariqasida, ovloq yerda Saragulga ro'paro' qildimikan? Yo o'sha kezlari dasti uzunligidan havolanib, uncha-buncha odamni mensimay, bosar-tusarini bilmay qolgani sababli, xuddi erkak zoti qurib qolganday, qandaydir bir ojizaning oldida tili qisq, boshi egik holda yurishini xohladimikan?

Yaxshiyamki, qazosi yetib, Saragul bu yolg'on dunyoni barvaqtiroq tark eta qoldi. Aks holda yurardi, umri oxirigacha ranggi chiqmay.

Agar qoplon balosi bo'lmaganida, oqsoqol bu dargohga o'laqolsa bosh urib kelmasdi. Saragul voqeasi tufayli bu xonadon ahlini unchalik xushlamasdi. Boz ustiga, Omonali royish yigitlardan emas, uning zamzamasini ko'taradigan. Charslikda hattoki otasi Sarkor lochindan ham o'tib tushadi. Shuning uchun oqsoqol, odatdagi, kattaB-zanglikdan tiyilib, yonishi qiyin bo'lgan ho'l o'tindek obdon pisilladi, pisirladi, chisirladi va yigitdan sado chiqavermagach, oxiri zardasi qaynab, aytgan gapi shu bo'ldi:

Agar evini qilolmasang, uzringni ayt. Borib, Asilbekka yalinamiz. Otasi Bo'ston rahmatli qadrdomimiz edi, iltimos qilsak, u yo'q demaydi.

Bu gapdan Omonali, chayon chaqqanday, bir sapchib tushdi. Barmoqlari beixtiyor tugun tortib, changali junga to'ldi. U changalini to'ldirgan junni yulib, yulqilab duch kelgan tomonga, aniqrog'i, oqsoqolning basharasiga otmoq istadi. Tortdi, tortqiladi, biroq po'stak juni yulinmadi. Bu po'stak tog'u toshlarda bearmon kezingan va o'tgan yili tomdek novvos bilan suzishib qolib, ahmoqona bir tarzda o'lim topgan qora takaniki edi. Terisi pishiq, juni bo'liq va qalin edi.

Omonali oqsoqolning tinchini buzgan qoplon Oqmanglayni Quyidarada mana shu qora takaga hujum qilganida ilk bora ko'rgandi. Qay bir jangda orttirganmi yo biror ovchi otgan o'q yalab ketganmi, uning manglayida ko'ndalang tushgan bir enlik oqish tukli tirtig'i bor edi. O'sha tirtig'i tufayli bu laqabni unga Omonali bergandi. Oqsoqol ham uning manglayidagi o'sha belgini yaxshi eslab qolgandi.

O'shanda qoplon takani ololmagan. Epchilikda uncha-buncha yovvoyi jonivorni bir cho'qishda qochiradigan qora taka o'zini sertikanak butalar orasiga urib, uning hamlasidan osongina qutulib ketgan. Bu voqeaga favqulodda guvoh bo'lgan Omonali yirtqichga nisbatan adovat sezmagani, yo'lga bo'lsa-da, baqir-chaqir qilmagan, takaning chaqqonligiga tasanno aytish bilan cheklangan, xolos. Shundan keyin u qoplonni Quyidarada boshqa uchratmagan.

Mana, bu yil u yana paydo bo'libdi.

Omonali o'zining g'azabnok boqishidan sarosimaga tushib qolgan Hamidqul oqsoqolga ortiqcha bir so'z demadi, mehmon hurmati, bir amallab o'zini bosdi.

Andisha qildi.

Aksariyat hamqishloqlari qatori xasislikning etagidan mahkam tutgan va bir tiyin ustidan o'mbaloq oshadigan bu xil kimsalardan u ko'pda xafa bo'lavermasdi. Biroq bunday odamlarning yomon bir odati bor, agar ishi tushar bo'lsa, iblisga borib yalinisidan ham toyishmaydi. Omonali yaxshi biladiki, oqsoqol arz bilan borsa, Asilbekning kuni tug'adi, el talab qilayapti, deya o'zida yo'q oshqinlaydi. Tog'begilarning ko'zini shamg'alat qilib, tog'dagi ko'ringan qoraga kun bermay qo'yadi keyin. Uni bu tomonlarga o'rnatgandan ko'ra, o'sha yirtqichni o'zi tinchitgani ming marta ma'qul.

U shu xayolda oqsoqolga rizolik bildiradi.

Bu tevarak-atrofdan qo'lidan ish keladigani faqat shu ikkovingda, deydi bu orada sal o'ziga kelib olgan Hamidqul oqsoqol yaltoqlanib. Yigitning asliyam, zo'riyam silar!

Omonali yana bir tagdor qarash bilan uning unini o'chirgach, negadir to'rdagi miltig'i tomonga ko'z qirini tashlab qo'ydi. Unda Asilbekka atalgan ikkita cho'chqa o'q bor edi. Nahotki endi bu o'qlar g'animi bu yoqda qolib, Oqmanglayga nasib etsa. O'ziga qolsa-ku, har ikkisini ham allaqachon Asilbekning ko'ksiga joylardi-da, keyin o'sha boradigan joyiga o'zi borardi.

U qasos ilinjida har safar qo'lga qurol tutganida, naq qarshisida Gulasalning o'ychan va jiddiy siymosi namoyon bo'ladi. Qiz har safar norozi qosh chimirgancha, tek, deydi, bu ishni aslo qila ko'rmang, deydi.

Gulasal tushlarida ham uni tinch qo'ymaydi: "Agar meni chindan suyar bo'lsangiz, qasos olishni xayolingizga keltira ko'rmang! deydi o'sha jiddiy qiyofada. Ruhim halovat topishini istasangiz, bu o'ydan tezroq qayting! U menga barmog'i uchini ham tegizgani yo'q!.." Omonali sarkashlik qilmaydi, tortishmaydi, bosh egib, xo'p, deydi. Shu so'zni aytishi bilan kulbasi mayin yog'duga to'lganini his etadi, deraza pardalarini tebratayotgan yengil va yoqimli epkinni sezadi. Ruhini erkalayotgan bu yog'du ostonada endi kulimsirab turgan Gulasalning gulgun chehrasidan balqiyotganini fahmlagach esa, tirikligida aytmagani, aniqrog'i, aytolmagan ko'ngil rozlari hech bir qiyinchiliksiz, tilida osongina evrila boshlaydi.

Seni sog'indim, sog'inib o'layapman seni, Gulasal!

Gulasal indamaydi, kulimsiragancha turaveradi.

Suyishimni o'shandayoq aytmaganimdan endi juda-juda afsusdaman, gulim! deydi Omonali ovozi qaltirab. Buni qaraki, aytish hech qiyin emas ekan! Nega vaqtida ko'nglimda borini ayta qolmadim-a!

Aytmasangiz-da, qarashlaringizdan bilardim!

Yo'q, aytmaganimdan baribir armondaman!

Armonga o'rin yo'q, men hammasidan boB-xaB-barman!

Rostdanmi?!

Chin so'zim!

Seni juda sog'inaman-da, gulim!

Sog'inishingizni bilib, keldim-da!

Endi ketmaysanmi, jonim!

Ketmaslikning hech iloji yo'q-da, azizim!

Bu gapdan Omonalining bag'ri o'pirlilib tushganday bo'ladi. U qizga intilib deydi:

Yo'-o'q, men uni baribir o'ldiraman!

Yana o'jarlik qilayapsiz! Qiz nimtabassum-la uni o'ziga yaqinlashtirmaslikka urinadi.

Chidayolmayapman-da! Yigit hamishagidek qizga baqamti borolmay, berida to'xtaydi.

Siz bardoshli bo'ling...

Eshikdan kirib kelgan mahbusasi har safargidek qizg'ish deraza pardasi qatida asta ko'zdan g'oyib bo'ladi.

Omonali uyg'onib ketib, hamisha o'zini qop-qorong'i xonada ko'radi. Quchoq'iga tushib qolgan bolishning namligidan tushida rosa yig'laganini sezadi. Ortiq cho'zilib yotishni istamay, asta tashqarilaydi. Ichi va tashi baravar yonishiga toqat qilolmay, chelakdagi muzdek suvni boshidan qo'yadi. Muzdek sovuq suv jismidagi otashnigina pasaytiradi, yuragidagi olov va sog'inch esa qolaveradi. Shundan so'ng boshdan-oyoq shalabbo bo'lgan holda mixda osig'liq turgan miltiq yoniga keladi. Undagi o'qlarni sug'urib olmoqchi bo'ladi. Biroq bu ishidan so'ng, ruhi tinchlangan Gulasal qaytib tushiga kirmasligidan cho'chib, yana niyatidan qaytadi. Yigitning har tuni mana shu tarzda abgor kechadi.

O'zini yurtning gapi o'tar, oldi kayvonisi deb biladigan Hamidqul oqsoqolning esa yigitning bu xildagi iztiroblari bilan mutlaqo ishi yo'q, uni Oqmanglayning changalida jon bergan jonlig'iyu agar tezda buning oldi olinmasa, qo'zi etiga mazaxo'rak bo'lgan yirtqichning yana qaytib kelishi ehtimoli borligidan o'zgasi qayg'urtirmaydi. Uning bor gapdan boxabar bo'la turib, Asilbekning nomini tilga olishga jur'at etishining boisi shundan edi.

Omonali o'zining rizoligini olganidan suyunishib, o'zaro gurungga tushib ketgan chollarning tezroq daf bo'lishini istaydi.

Aniqrog'i, ularning nasihat qilib qolishlaridan cho'chiydi. Nega deganda, nasihatga bahona tappa-tayyor edi-da. Axir chimildiq ko'rmay turib qaysi yigit o'z boshiga vatan tikadi. Bu kamdek, o'gay enasi sig'dirmaganidan, Omonali uyini bo'lak qipti, deganga o'xshash gap-so'zlar ham allaqachon qishloqda tesha tegmagan mavzuga aylangan. Bu esa, tabiiy ravishda, chollarning nasihat qilmog'iga undaydi. Shuning uchun u uzr so'ragan ohangda dedi:

Men ertagayoq uning izidan tushaman. Bugun esa kuch-puch yig'ib deganday... ozroq dam olishim zarur.

Oqsoqollar qo'zg'olishdi.

Omonali ularni darvozagacha uzatib bormay, ukasi izmiga topshirdi-da, o'zi tog'larga xayolchan termulgancha, hovli yuzida turib qoldi. So'ng qo'ra chetida bog'liq turgan ovchi iti Bo'ynoq tomon yurdi. Uning yag'riniga shapatilab, picha erkalagan bo'ldi va shu asnoda ko'zi supuriqsiz-sidiriqsiz qo'ra ichkarisiga tushib, ta'bi battar xiralashdi. Yaqinda otasi tomonidan ajratib berilgan suruv Omonali uchun izi-keti yo'q bir dunyo tashvishni yuzaga keltirgandi. Molga qaramay desa, bo'lmaydi, qarashga esa unda na ishtiyoq, na hafsala bor edi. Qo'li ishga bormay turgan shunday bir pallada, bu yoqdan Oqmanglay muammosi chiqib turganini qarang.

U devorga suyab qo'yilgan kurakni qo'lga olib, azbaroyi o'lganining kunidangina qo'rani tozalashga kirishadi.

\*\*\*

Sarkor lochin farosatli odam edi. Ko'rdiki, to'ng'ich o'g'li qoyadan yiqilib o'lgan shaharlik olima qizning fojeasiga chidayolmay, kuyib-yonmoqda. Agar vaqtida oldi olinmasa, qoyaday yigitdan bir siqimgina kul qolishi mumkin. Hozir unga na achchiq so'z ta'sir qiladi, na pandu nasihat. Yigitni faqat biror ishga andarmonlik, ya'ni mehnatgina qutqara olishi mumkin. Shuning uchun ota uni mehnatga bog'lashga qaror qildi. O'z qo'rasidagi jonliqning teng yarmini va hatto ko'prog'ini o'g'lining qo'rasiga haydab qamadi.

U bir yilcha burun Omonalini uylantirish niyatida hovlisi biqinidagi sayxonlikka yangi imorat tushirib, qo'ra egirtirgandi. Bu urug'ning manglayiga kech uylanish yozilgani bois, shu paytgacha o'g'lini uylanishga ko'pam qistamagan, o'zidan biror sado chiqishini kutgan. Keyinroq o'g'lining ko'ngli tog'u toshlarda chechaklaru o'simliklarni o'rganadigan, ko'nikmagan ko'zga juda g'alati ko'rinuvchi keng soyabonli shlyapa boshidan tushmaydigan charos ko'zli, qoramag'iz yuzli olima qizga moyilligini sezgach esa, hayratdan yoqa tutgan.

Bu nimasi, qishloq to'la oy yuzli, lo'mbillagan-lo'mbillagan qizlar bo'lsa-yu, u kimga ko'ngil qo'yib yuribdi. Tavba, yo'q yerdagi ishlarga ro'ju qo'ygan bu qora chigirtkaning nimasi yoqdi ekan unga? Lekin shundayam ota, ne gap o'zi, deb so'ramadi, uning o'zi biror nima deyishini kutdi. Biroq o'g'lidan bir sas chiqqancha bo'lmay, qizning qoyadan uchib o'lganini eshitdi. Shundan so'ng o'g'li bir muddat shaharga yo'q bo'lib ketdi-da, qaytishi bilan hech gapdan hech gap yo'q, uyini bo'lak qilib oldi.

O'sha kuni ota qo'y-qo'zilarni qo'raga qamab, dag'al taxtalardan ishlangan eshikni zichlab yoparkan, hovli o'rtasida yuzi g'amdan qorayib o'tirgan o'g'luga aytgan birdan-bir gapi shu bo'ldi:

Mollarga qarash kerak, ulim...

Shu paytgacha mollar umum edi. Dabdurustdan chorvaning ikkiga bo'linishi kutilmagan hol edi. Omonali uning niyatini darrov fahmladi, ota uni mehnatga bog'lamoqchi, andarmon qilmoqchi. Ota, odatda, nimagadir qaror qildimi, tamom unga monelik qilish, qarshi gap aytish befoyda. Biroq bu ishga Omonali qanchalik loqayd qarasa, o'gay ukasi Berdiquil ichidan shunchalik zil ketdi. Yarim qo'ra molning he yo'q-be yo'q o'gay akasi tasarrufiga o'tib ketganidan yuragi tars ikki yorilay dedi. Biroq bu haqda uy xo'jasiga botinib bir so'z aytolmadi. Bor dardini o'choqboshida bamisli ilonday to'lg'onib o'tirgan enasi Erkinoyga borib to'kishdan o'zga chora topmadi. Shusiz ham alamdanda o't tushgan nam xashakday tutab, tutaqib turgan ayol battar o'rtandi, bariga o'g'li aybdorday, qo'lidagi temir kosov bilan Berdiquilning qoq yelkasiga bir tushirdi-da, so'ng yer mushtlab, vishillagancha, qo'shni hovlida yurgan eri va o'gay o'g'lini qarg'ab qo'yaverdi.

Erkinoy deganlari aqli kalta, tili uzun ayollar toifasidan edi. Shu fe'li sababli erining qamchisini tez-tez tatib turardi.

Qamchi oldida hamisha o'zini musichaday beozor tutardi. Ammo bu "musicha"ning tili ayri edi, har qulay fursatdan foydalanib, zahar solmoqqa hozir turardi.

Sarkor lochin bu ayolga g'amdan karaxt bo'lib yurgan paytida uylangandi. Uni Saragulday ajoyib yostiqdosh bo'ladi deb umid qilgandi. Yo'q, bu dunyoda Saragulga o'xshashlar kam, aqli noqis kaltabinlar esa juda serob ekan. Bunaqalar yo'q yerdan nam olib, jigarlar o'rtasiga nifoq solmoqqa o'ta usta bo'larkan. Eng nochor jihati, bunaqalar o'z qilmishlarining gunoh ekanligini anglab yetmoqqa noqodir va fe'li torlik ularga meros ekan.

Sarkor lochin odamzod fe'lidagi bu qusurlarni anglab yetguncha bo'lmay, Erkinoy ergashma o'g'li Berdiquidan so'ng hash-pash deguncha bir etak farzand tug'ib berdi. Sarkor lochin fe'l-atvori enasi Saragulga tortinqiragani uchunmi, yo boshqa sababdanmi Omonalini boshqa farzandlariga nisbatan ayricharoq suyardi. Lekin buni hech qachon oshkor etmasdi. Bor-yo'q amali, ozmi-ko'pmi uning ra'yiga qarardi, xolos. Sarkor lochin o'rnida boshqa bir ota bo'lganidami, el nima deydi, deya o'g'lining bu qilig'iga, ya'ni ro'zg'orini bo'lak qilishiga tish-tirmog'i bilan qarshi chiqardi. Sarkor lochin, tabiatan farosatli odam emasmi, darrov fahmladiki, o'g'li tanholik istayapti. Bundaylar g'amini pinhon tutadi, o'zi kuyib, o'zi yonib, oxiri bir amallab qaddini tiklab oladi. Saragul bu yorug' olamni tark etganida, Sarkor lochin o'zi ham kishi ko'ziga go'yo tosh bo'lgan, yolg'iz qolganida esa, manglayini qattiq devorga tirab, mumday erib yig'lagan.

O'g'li ota hovlini tark etgan kunning ertasi Sarkor lochin asta uning kulbasiga mo'ralagan. Qarasaki, keng xonada ranggi uniqqan eski sholcha-yu ikki bolish hamda nimdosh ko'rpa-ko'rpachadan bo'lak hech vaqo yo'q. Bu holdan otaning yuragi titrab ketadi va o'sha kuni ayoli va qizlarini do'qlab, kulbani kelinchakning uyidek yasattirib qo'yadi. Biroq bundan Omonali zarracha quvonmadi, qaytamga battar ezildi. Negaki, bezalغان uy kelinsiz, kelinlikka yagona nomzod Gulasal esa bu tiriklik dunyosini tark etib bo'lgan. Shunday ekan, bu ortiqcha hasham nimaga kerak, yo'q boshga do'ppi tanlashdek bir gapda buyam. Ammo aql-hushi qatori tili ham karaxt emasmi, bu haqda bir so'z demaydi. O'zidan maqtov kutib, ostonada qator turgan singillarini ko'radi-yu, lekin ularni akalarcha alqab qo'yish lozimligini idrok etolmaydi. Xullas, bu qilig'ining sababini ota so'ramadi, o'g'il esa o'zidan bilib biron anglatish bermadi. Zero, u birovga izoh beradigan ahvolda emasdi.

Omonali qizni so'nggi yo'lga uzatib, shahardan qaytishi hamon Asilbekni qidirib, to'g'ri uning to'qayzor orasiga biqingan pastqam kulbasiga urib bordi. Bir so'z demay, qoq peshonasiga miltiq tiradi. Po'pisaga emas, chinakamiga otmoqchi edi. Birato'la ikki o'qni bo'shatib, xumoridan chiqmoqchi edi. Biroq barmoqlari tepkiga yetib-etmay, miltiq mili qarshisida terchigan, oftobda qoraygan, kir-chir qarimsiq manglayni emas, bo'shliqni ko'rdi. Ajablanib bunday qarasaki, qora yuz Asilbek tiz cho'kib emas, yer quchib yalinmoqda. Qizning o'limida mening aybim yo'q, deya zor qaqshamoqda.

Bungacha Omonali qizning qoyadan yiqilishini ko'rgan yagona guvoh mulla Said bilan yuzma-yuz bo'lgandi. Aniqrog'i, mulla Saidning o'zi uni qidirib kelgandi.

Turqingga qaraganda, sen bola bir baloni boshlamoqchisan shekilli! deya unga bet bo'lgandi. Agar niyating shu bo'lsa, ko'p chakki ish qilasan lekin.

U Omonalini yaxshilab koyib qo'ymoqchi edi. Ammo bunday qarasaki, yigitning nigohi tumanli, badaniga tig' sanchsang-da, sezmaydigan bir ahvolda. Mulla Said otasi Qosim qoriday orqali odam edi, orqasi tutib qolar bo'lsa, katta-kichikni ayab o'tirmasdi. Belida doim qistirig'li yuradigan mayda o'rim qamchisini qo'lga olib, tuyqusdan savalab qolardi. Keyin, yelkangga jin-ajinalar o'tirib olgan ekan, barini haydab soldim, derdi va bu gapiga boshqalar qatori o'zi ham chippa-chin ishonardi. Shuning uchunmi, uning bu ovkorligi ko'pchilikka og'ir botmasdi.

Mulla Said qarshisida og'ziga suv olganday, churq etmay turgan yigitga qattiq tikilib, beixtiyor belbog'idagi qamchisiga qo'l yuborarkan, so'nggi daqiqada yigitning yelkasiga allaqanday mayda-chuyda jin-ajinalar emas, haybatli bir dev o'tirib olganini payqadi. Bu devning bir oti "gumon", ikkinchisi "qasdu qasos" ediki, uni oddiy bir qamchi bilan haydab, quvlab bo'lmasdi. Shuning uchun qoyada yuz bergan fojeaga guvoh bo'lgan kishi sifatida ko'rganlarini qayta takror etib, dediki, o'zing boxabarsan, o'sha kuni men Qizilqoya qoshidagi do'ngda qo'yalarimni yoyib yurib edim, u qiz, rahmatli, it quvganday, qoya yoqalab pirpiB-rakday yelib keldi-da, Oqartoshga tushib qolib, payraxaday pastga enib ketdi. O'zing bilasan, Oqartoshning komiga

tushgan tirik jonning omon qolmog'i qiyin.

U shu gaplarni ayta turib yigitga qattiq tikilarkan, uning ko'zlarida quyidagi ma'noni o'qidi: "Kimdir quvlaganki, qochaman deya, Oqartoshga tushib qolgan". Kim emas, kimdir quvlaganini mulla Said elagina ilg'ab qolgandi. Lekin kim, buni u ham bilmasdi. Negaki, quvlagan kimsa yalanglikka bir rovg'a otilib chiqib, so'ng qizga yetolmasligiga ko'zi yetdimi, yo birov ko'rib qolishidan cho'chidimi, harnechuk, tezda o'zini archalar panasiga olgandi. Muhimi, o'sha kimdir atay qizni qoyadan itarib yuborgani yo'q, Oqartosh o'zaniga tushgan uning o'zi. Umuman olganda, qizga Qizilqoyada pishirib qo'yibmidi? Kal echkiday dikonglavermay, joyini bilibgina yursa bo'lmasmidi! Shuning uchun qizning o'zini aybdor sanab, jiddiy dedi: "Yo'q, uni birov quvlasa, ko'rardim. Axir bari hodisa ko'z o'ngimda sodir bo'ldi-ku." Biroq Omonali yaxshi biladiki, tog'da hech kim o'z mayliga yugurmaydi, ayniqsa, Gulalday oqila qizlar pastu balandga qarab, har bir qadamini o'ylab va o'lchab bosadi. Buning ustiga, o'sha kuni Asilbekni tog'da jonsarak holatda ko'rganlar bor. Mulla Saidga kelsak, u hamisha va har ishda tinchlik tarafdori ko'rsa-da, ko'rmadim deyishi tayin. Boz ustiga, bu ishda Asilbekning qo'li borligini ko'ngli aniq aytib turibdi.

O'sha kuni alamdand otash bo'lib yonayotgan esa-da, u baribir Asilbekni otolmadi. Qarovsizlikdan chakalakzorga aylangan qarshidagi bog'dan bir dasta shox-shabba ko'tarib chiqib kelgan keksa enasi dodlaganacha ko'ksini miltiqqa ro'paro' qilgach, Asilbekka atalgan o'qlar yana o'z joyida yaroqda qolaverdi.

Qisqasi, Gulasal ushalmas orzular qatida, g'amgin va armonli xotiralar og'ushida qolgani bois, Omonali g'am-alam ummoniga bo'g'ziga qadar botmoqchi edi. G'am degani juda totli tuyulib, uning bag'riga butunlay singib ketmoqchi edi. Uning nazdida, tiriklik allaqachon to'xtab, tosh qotib qolganek edi. Biroq, buni qarangi, u to'xtamagan, o'z maromida davom etayotgan ekan: ana, qor qoploni Oqmanglay suruvga hujum qilibdi. Suruv egasi Hamidqul oqsoqol esa ko'mak so'rab huzuriga yugurib keldi... Xullas, o'z maylida evrilyotgan tiriklik hatto tanholikda tinchgina ko'zyoshi to'kmog'iga izn bermayapti. Undan harakatni va dadil oyoqqa qalqishni talab etayapti.

U o'zi sezmaganda holda qo'lidagi kurakni, xuddi unda qasdi borday, tez va chaqqon ishlata boshladi.

Tog'dan endigina qaytgan Sarkor lochin o'g'lini yana eski holida ezgin va xayolchan holatda ko'raman deb o'ylagandi. Agar shunday bo'lsa, bu safar biroz buruvga olmoqchi edi. U shu xayolda devorga yaqinlasharkan, so'nggi daqiqada bu niyatidan qaytdi, qo'y, kuyib turgan jonini battar kuydirB-mayin.

Sarkor lochin o'rtadagi pastak eshikdan egilib o'tishdan avval devor osha hovliga mo'ralarkan, o'g'lining qo'ra tozalayotganini ko'rib, tashvishmand yuziga tabassum yugurdi. Mammun yo'talib, o'zidan darak bergan bo'ldi. So'ng nimadandir malollanganday, asta egilib ichkariga o'tdi. O'g'lining ro'zg'orini ko'zdan kechirayotganek, hovli o'rtasida bir zum turib qoldi. Shunda u naq yelkasida ayoli Erkinoyning o'tkir qarashini his etdi. Bildiki, ayoli devor osha ortidan mo'ralab turibdi. Ko'zlarida mehrdan asar yo'q, shubha, gumon va qahrga to'la. Bari bo'lingan chorva vajidan. Hozir orqasiga o'girilishi bilan ayoli devor ortiga yashirinadi va agar bekinishga ulgurolmasa, o'lganining kunidan jilmaygan kishi bo'ladi, lekin yuzi kulsa-da, ko'zlari kulmaydi. Yaxshiyamki, uyidagilar otaning g'azabidan zir titraydi, aks holda bu xonadonda allaqachon qo'zg'olon qo'pishi aniq edi.

Oqsoqollar kepti deb eshitdim, dedi Sarkor lochin o'g'li yoniga kelgach, qiyalik bo'ylab sochilgan qishloq uylariga shunchaki bir nazar tashlab. Tinchlikmi?

Omonali sezdi, otaning bari gapdan xabari bor. Shunga qaramay izoh bergan bo'ldi.

Qoplon doribdi deyishayapti.

Mazaxo'rak bo'ptimi?

Shunga o'xshayapti.

Unda... bir yoqlik qilish kerak uni.

Men ham shu o'ydaman.

Oson emas-ov bu ishing.

Oson emas...

Shu bilan gap tugagandek edi. Aslida esa tugamagan, endigina boshlangandi. Ota, nega suruvni Bozorqulga ishonib, o'zing pashsha qo'rib o'tiribsan, demoqchi edi. Faqat bunga jo'yaliroq biror bahona topolmayroq turardi. U o'g'lining jon jo'rasi Bozorqulning o'ta halolligi va do'stga nisbatan sadoqatini juda qadrlardi-yu, biroq ayni damda o'zining butun rejasini puchakka chiqargani uchun, undan bir oz xafa edi.

Ota chorvani ikkiga bo'lgan kunning ertasiyoq Bozorqul do'sti Omonalining uyiga urib kelgan. Bilaman, hozir sen molga qaraydigan ahvolda emassan, shuning uchun qo'ylaringni suruvimga qo'shib, o'zim boqib turaman, so'ng surishib-ko'rishib ketaveramiz, degan. Otaning nazarida, u do'stlik qilaman deb, dushmanning yo'lini tutgan, ya'ni jo'rasini g'am-alam girdobiga yolg'iz tashlab qo'ygandi. Omonaliga esa bu xil g'amxo'rlik emas, mehnat deb atalmish achchiq qamchi darkor edi. Ana shunda u xiyolgina bo'lsa-da, qayg'udan chalg'irdi. Biroq Bozorqul go'l, buni qayerdan ham bilsin. Shu narsa Sarkor lochinning g'azabini qo'zitmoqda edi. U ichidagi bor zardasini o'g'liga sochib, molingga o'zing egalik qil, demoqchi edi. Agar Omonali, ertadan boshlab qoplonning iziga tushaman, deb qolmaganida, Sarkor lochin bu safar uni siypalab o'tirmagan, aytadiganini aytardi. Qoplon ovini eshitgach esa, ko'ngli darrov xotirjam tortdi. Negaki, tirik inson uchun ovdan zo'r ermak yo'q. U shunday bir ko'ngilli mashg'ulotki, odamzod qayg'u tugul, o'zini unutib qo'yadi.

Shuning uchun ham Sarkor lochin taskin bir kayfiyatda o'g'il uyini tark etdi.

\*\*\*

Ertasi tongda Omonali g'animi Asilbekka atalgan qo'sh o'qni miltiqdan bo'shatib, tokcha burchagidagi tunuka qutichaga alohida qo'yib qo'ydi-da, so'ng yarog'ini yelkasiga osib, yolg'izoyoq so'qmoqdan toqqa qarab jo'nadi.

U oshiqmasdi, oshiqishni xayoliga ham keltirmasdi. Nega deganda, bundan biron naf yo'q edi. Axir qoplon degan jonivor seni tayinli biror joyda kutib turmaydi, shuningdek, lop etib oldingdan ham chiqib qolmaydi. Uning iziga tushmoq uchun avvalo u yuradigan manzilni obdon o'rganib, yo'nalishlarini aniqlab olish lozim. Shu bois, bunaqa ishda foydasidan ko'ra ziyoni ko'proq bo'lgan itini ergashtirmadi. Ana, u zanjirini tortqilab, butun qishloqni boshiga ko'tarmoqda.

Omonali ota tomondan uzoq qarindosh hisoblanmish, sodda va dalli-g'uli, o'z navbatida, anchagina sinchi bo'lgan Meliql tog'begiga sezdirmay tog'dan ozmi-ko'pmi nasibasini terib yursa-da, ayrim noinsof ovchilardek bu ishga haddan tashqari ruju qo'ymagan, qisqacha qilib aytganda, insof doirasidan chiqmasdi. Shu sababmi, Meliql tog'begi bir safar degandi: "Shu vijdoningga andakkina g'ubor qo'nganini demasa, sen asli yomon yigit emassan. Yaxshiliging manglayingdan ma'lum. Ammo-lekin shu g'ubor... Qani endi, chog'im yetsa-yu, vijdoningni ana shu gardu gurdan tozalabgina qo'ysam. E, shunda kishi havas qilarli bir

yarqiragan yigit bo'larding-ki, hech u yoq-bu yog'i yo'q... Faqat men g'uborni aritadigan so'zlarni bilmayman-da. Agar bilganimda bormi, ichingni chinniday tozalab qo'yardim-a".

Omonali ko'ngildan g'uborni aritadigan so'zlarni keyinroq, ya'ni yomg'irli kunlarning birida, shiptidan suv chakillab turgan Kungaybet g'orida tasodifan tanishgan Gulasalda eshitdi.

Shu kungacha bu yorug' olamda boshida soyaboni keng oqish shlyapa, egnida esa jinsi shim va shu matodan tikilgan sercho'ntak kaltaroq kamzul, qorachadan kelgan yuzi doim kulib turadigan, yoniq nigohli, xushbichim qaddi-bastli qiz borligini hatto tasavvuriga ham sig'dirolmasdi. U ezib yog'ayotgan yomg'irni la'natlagancha, boshpana ilinjida qo'riqxonaga chekkasidagi toshloq yonbag'irlikni yoqalab, archazor betlikdagi Kungaybet g'orini qoralab borardi. G'orda o't yoqib, jiqqa ho'l engil-boshini quritish niyatida edi. U o'zidan kam ivimagan itini ergashtirgancha, sirpanchiq tanggu tor so'qmoqdan yuqoriga o'rlarkan, quyidagi archazorda qantariqli otlarga va g'or og'zidan ko'tarilayotgan yengil tutunga ko'zi tushgach, bir oz taraddudlanib qoldi. Biroq bu atrofda shundan bo'lak pana joy bo'lmagani bois, ichkariga bosh suqmoqdan bo'lak chora topmadi.

U qiziqsinib, asta g'or ichiga mo'ralarkan, dastlab ko'zi tushgani kiraverishdagi keng ayvon o'rtasida biqirlab qaynayotgan chog'roq osma qozon bo'ldi. Olovning bir chetida esa biqini xiyol pachoqlangan qoraqumg'on jig'illab turardi.

Ko'zi nimqorong'ilikka o'rgangach, o'choqdan nariroqdagi pastak supamisol qizg'ish tosh ustida, qo'lfonar yorug'ida allanimalarni chizib-yozib o'tirgan ikki ayolni va g'or devoriga orqa tiragan ko'yi, bahuzur mudrayotgan Meliql tog'begini ilg'adi.

Omonalining tashrifi ayollardan biri mallasoch Irinaga yoqmadi. Shu yomg'irli havoda sen yetmay turuvding deganday, xo'mrayib bir qarab qo'ydi-da, yana ishida davom etdi. Ammo Gulasal bee'tibor bo'lolmadi. Xuddi uyiga kutilmaganda mehmon kelgan bekaday, avvaliga jindek besaB-ronjamlandi, so'ng o'rnidan ilkis qo'zg'alib, go'yo mehmonga ko'rpacha tashlamoqchiday, beixtiyor bir sira yon-beriga ko'z yugurtirdi va qachonki ko'zi tosho'choqqa yaqin yerdagi kursi monand toshga tushgandan keyingina, chehrasidan xijolatga o'xshash noqulaylik arib, jilmaydi, keling, o'tiring, deya toshga ishora qildi. Tabiiy, yigitning obdon ivigan engil-boshi ham uning nazaridan chetda qolmadi. Omonalining paxtaligini yechib, shundoqqina oyog'i ostiga tashlab qo'yishi yoqmay, yengil bir harakat-la uni qo'liga oldi-da, olovga yaqinroq toshlardan biri ustiga yoyib qo'ydi. U bu ishlarni shunday bir o'ziga xos savqi tabiiy ila ado etdiki, g'irt nodon odam ham uning bosaronjom oilada kamol topganini anglamasdan iloji yo'q edi. Biroq qizning bu xil jonsarakligi Irinaning g'ashiga tegmay qolmadi, chalg'ima, dedi nozolanib. Gulasal esa uning to'ng'illashiga e'tibor ham bermay, o'choqqa yaqinlashdi. Qozonda bilqillab qaynayotgan taomning tuzini tatib ko'rdi, so'ng bir maromda yonayotgan olovning bir qismini o'choqdan beriroqqa tortdi-da, tutay boshlagan o'tga yana o'tin tashladi. Bu harakatlarning bari o'zi uchun ekanligini anglagan yigit battar xijolat tortdi. Baxtiga Meliql tog'begi uyg'onib qolib, uning noqulay vaziyatdan chiqmog'iga imkon yaratdi.

E, qarindosh, senmisan, deya og'zini karrakday ochib esnarkan, ko'zi g'or devoriga suyab qo'yilgan yaroqqa tushgach esa, ham tog'begi, ham xesh sifatida, odatdagiday, uni tergay boshladi. Shu yomg'irda Xudo deb uyingda o'tirmaysanmi! Buytib sanqib yurishing nimasi, a? Qo'riqxonada yana ko'rsam, qarindosh-parindosh deb o'tirmayman, tozagina xafa qip qo'yaman demaganmidim! Xo'sh, endi nima qilay, a?

Birinchiidan, qo'riqxonada emas, undan chetdamiz, dedi Omonali hazil ohangida. Keyin... urasizmi, so'kasizmi, faqat hozircha mehmonlarning oldida odamni uyaltirmay turing.

Bular mehmon emas, olimlar! dedi Meliql tog'begi andak g'urur bilan. Tovdagi barcha o'simliklar bilan tillashadigan odam bular. Shundaymi, Irinaxon?

Biroq endi yozuv-chizuvini yig'ishtirib, tizzalarini quchganicha, tashqarida sharros quyayotgan yomg'irni kuzatib o'tirgan juvon uning gapiga hech bir munosabat bildirmadi, ya'ni tog' odamlarining sodda va do'lvor gap-so'zlariga unchalik ham hushi yo'qligini anglatishdan iymannadi. Uning bu nopisandligidan sal shashti qaytinqiragan Meliql tog'begi nima deyarini bilmay, nosqovog'ini qo'liga oldi va kaftiga mo'lgina nos to'kdi, so'ng uni tili tagiga tashlasammi-yo'qmi deganday, bir muddat hardamxayol turib qoldi. Gulasal esa yuzaga kelgan bu noqulaylikdan xijolat tortganday, andak oshiqish-la qumg'onni olovga yaqin surdi, nima ichasizlar, choymi, qahvami, deya hazil-huzul qilgan kishi bo'ldi. Keyin bu bilan qanoatlanmay, naridagi xaltalarning biridan chinni idishlarni olib, ularni birma-bir chayishga tushdi. Orada tog'begini savolga tutib, chalg'itishga urindi. Undan allaqanday o't-o'lanlarni so'radi. Ular orasida qayta jonlangan gurungdan Omonali shuni fahmB-ladiki, bu ikki ayol haqiqatdan ham o'simlikB-larni o'rganadigan ilm kishilari ekan. Bundan uning taajjubi battar ortdi. Ayol boshlaring bilan bu ovloq tog'u toshlarda silarga pishirib qo'yibdimi, degisi keldi. Agar boshdayoq uning tashrifini unchalik xushlamagan Irina g'or devoriga suyog'li miltiqqa ishora qilib, brakonCHbermi bu, deya to'satdan to'ng'illab qolmaganida, shunga yaqin gap qilishi tayin edi.

Yo'q, dedi tog'begi allanechuk shoshqaloqlik bilan. Bu yigitning tovga hech ziyoni yo'q. U qo'riqxonadan chetda ov qiladi.

Tarafini olayapsizmi, demak, bu yog'i tanish-bilishchilik, dedi Irina janjal qo'zg'ashni yaxshi ko'radigan ayollarga xos qosh chimirib. Qo'riqxonaga hududiga qurol bilan yaqinlashdimi, bas, qonunni buzgan hisoblanadi...

Shu payt Gulasal ilon chaqqanday chinqirib yubordi:

Voy, qahvani unutibmiz-ku!

Irina, chamas, qahvasiz turolmaydiganlar xilidan shekilli, rang-quti uchib ketdi. Bo'lishi mumkin emas, deya irg'ib o'rnidan turdi-da, qoplardan birini shoshib-pishib titkilay boshladi. Bu orada Gulasal, miyig'ida kulimsirab, ikkinchi qopdan kichkina yaltiroq shisha idish chiqardi. Keyin, qalay, bopladimmi, deganday tog'begiga sho'xchan ko'z qisib qo'ydi. Irinaning bobillashiga esa, ko'nikib ketganidanmi, hatto e'tibor ham berib o'tirmadi.

Omonali ularning taomiga sherik bo'lishdan tortinib, tezgina paxtaligi va yarog'ini qo'liga olib, tashqariga yo'nalarkan, shu havoda qayoqqa borasiz, degan sasdan so'ng yalt etib ortiga qaradi va o'ziga hayron boqib turgan qizga ko'zi tushdi.

Keldingizmi, taomimizdan totinmasdan ketish yo'q, dedi Gulasal nigohini tabassumga to'ldirib. Yo sizlarda eshikdan kirgan odamni quruq og'iz bilan qaytarishadimi?

E, yo'q, dedi Omonali shoshib. Biz borgan odamga qo'y so'yamiz.

Unda qo'yga qarzdor qip qo'yish niyatida, sizni bir piyola choyga taklif etsak bo'ladimi? dedi qiz yurakni o'rtaydigan darajada jilmayib. Mabodo kamtarona dasturxonimizni nazarga ilmayotgan bo'lsangiz, nima ham derdik, zorimiz boru zo'rimiz yo'q. Yo qo'yga qarzdor bo'p qolishdan qo'rqayapsizmi?

Nimalar deyapsiz! yigitning oriyati qo'zib, qo'lidagi yaroqni g'or devoriga suyab, iziga qaytdi. Yuring, hoziroq oyog'ingiz ostiga qo'y so'yaman! So'yamagan nomard!

Unda yomg'ir tinishini kutishimizga to'g'ri keladi. Qiz kulganicha epchillik bilan qahva tayyorlay boshladi. Hozircha esa bizning xushbo'y qahvamizga sherik bo'lmoqdan bo'lak ilojingiz yo'q. Qani, marhamat, olovga yaqinroq keling.

Shu payt tashqaridagi xarsangtosh panasida qolgan Bo'ynoq ichkariga bosh suqib, ularning gapi bo'lindi. Itni ko'rishi bilan Irining to'ng afti yorishdi. Bo'ynoqni erkalab yoniga chaqirdi. Biroq Bo'ynoq aksariyat itlar kabi dum silkitmadi, o'zini chorlayotgan notanish ayolga sergak tikilib, silB-kind, yalandi, so'ng egasining buyrug'iga itoat etib, g'or ostonasiga cho'kdi. Omonaliga qolsa-ku, itni hayallatmay tashB-qariga haydardi, ammo ayollar bunga izn berishmadi. Ayniqsa, Irina xuddi tug'ishgan ukasini himoya qilganday, baqirib berdi.

Ularning vag'ir-vug'irini nimtabassum-la kuzatib, hanuz yonboshlab yotgan Meliql tog'begi o'ziga uzatilgan idishni qo'lga olarkan, norozi ohangda dedi:

Mana shu nordon ichimlikni ta'miga hech o'rganolmadim o'rganolmadim-da, singlim. Buning choy bo'lib, choy emas, zahardan berman bir balo. E, buning toza achchiq-ku! O'zgina shakardan qo'shi-iy. Ha, barakalla!

Omonali o'choqboshida kuymanayotgan qizga qarashgan bo'lib, o'tga cho'p-po'p tashlab o'tirarkan, bu orada ularning suhbat hayratli darajada tez qovushib ketdi. Gurung asnosida qizning asli shaharlik ekani, uch kundirki, tog'u toshda tentib yurganiyu ikki yildirki, o'simliklar bo'yicha ilmiy ish qilayotgani bilib oldi. Qizning, ayniqsa, tog'da hali hech kimga ma'lum bo'lmagan biror o'simlik turini kashf qilib, unga onasi nomini berish orzusida yurganini eshitib, butunlay dong qotdi. Axir tog'da o'z maylida o'sib-unib yotgan giyohlarni o'rganish va hali fanga ma'lum bo'lmaganlarini aniqlab, unga biron-bir nom berish tasavvuriga sig'maydigan ish edi-da. Negaki, u tog'lardagi barcha o'simlik turlarini mollarga oziq bo'ladigan shunchaki o't-o'lanlar deb bilardi-da. Buni qarangi, bu dunyoda o't-o'lanlarga boshqacha ko'z bilan qaraydigan va hatto ularga o'z ismini berishga hozir va shuningdek, mavjud narsalarni boshqacha nomlaydigan tentaklar ham bor ekan.

"Suvorov shirachi" deydimi-ey. "Ulug' lola" deydimi-ey. Axir shirach o'z nomi bilan shirach-da. Unga nomingni berding nima-yu, bermading nima, shu bilan uning shakl-shamoyili o'zgarib qolardimi, yo boshqacha tus olarmidi. Bular o'zi juda g'alati odamlar ekan, hamma narsani o'zlaricha nomlab tashlashaverarkan. Emasam, lolaga nom berishi nimasi. "Ulug' lola" emish...

U shularni xayolidan o'tkazar ekan, qavatida notanish terminlar bilan boshini qotirayotgan, to'g'rirog'i, gurung berayotgan qizni jerkib, shu sizga zarilmi, nimaga kerak buning barisi, degisi keladi. Lekin deyoilmaydi. Sababi, Gulasal oqshomlari buloq bo'yiga yig'ilib, g'iybatning uyini kuydiradigan va hayotga nisbatan qarashlari manov mu droq tog'lardan nariga o'tmaydigan, eng yomoni, orzu va qiziqishlari bir tutamgina bo'lgan qishlog'i qizlariga sira o'xshamasdi. Agar hozir yonidagi olima qizning o'rnida qo'shni qizlar Salima do'ndiq yoki Oysara chittak o'tirganidami, Omonali hech istihola qilib turmay, hay tentak qiz, ko'hlikkina, bo'ylikkina ekansan, buytib tog'u toshlarda tentib yurmay, er-perga tegib, uyingda beshik quchib o'tirsang bo'lmaydi, deyishi aniq edi. Biroq Gulasalga bu xil muomala qilish qiyin edi. Qandaydir boshqacha edi u. Bir qarashda, judayam yaqin, o'z navbatida esa, qo'l yetmas darajada uzoq edi u. Bolalarcha beg'uborligi va soddaligi ortida uncha-bunchaga qayishmaydigan qandaydir qat'iy fe'l yashirin edikim, bu narsa istagan paytda o'zini namoyish etishi mumkin edi. U, qobil bo'lsang, erkalayman, mabodo yomon xayolga borsang, tezda tanobingni tortib qo'yaman, deyotgandek tuyulardi.

Omonali qizning suhbatiga andarmon bo'lib, qahvadan bo'shagan idishlarga Irining jindek-jindek aroq quyganini payqamadi. Qachonki tog'begi xushnud va xushomad ohangida, bunday havoda aroq ichmaslik gunoh, Irinaxon, degandan so'nggina o'ziga uzatilgan idishga e'tibor berdi. U shu yoshgacha ayol kishi qo'lidan biron marta qadah olmagani bois, Irining bu ishi unga juda erish tuyuldi, hatto andak nafsoniyatiga ham tegdi. Shuning uchun bir oz qo'rslik bilan ayolning qo'lini nari itardi. Irina esa uni ortiq qistab turmadi, xohishing, deya narida ko'zlari o'g'ri mushukning ko'zlariday yonib-yolqinlanib o'tirgan Meliql tog'begining qavatiga borib cho'kdi va ikkisi cho'qishtirib ichishdi.

Ovqat oldidan goh-gohida o'zgina ichib turadigan odatlari bor, dedi Gulasal hamroB-hining bu qilig'i yigitga yoqmaganini fahmlab va so'ng sekin shipshib qo'ydi: Lekin, sal qo'rsiligini demasa, o'zi ajoyib ayol. Ajoyib olima!

Siz esa... olmadingiz? dedi yigit ayol haqida ortiq izoh eshitishni istamay, yarim chin, yarim hazil ohangda.

Qiz go'yo bu gapni eshitmadi, uning e'tibori g'or og'zida cho'zilib yotgan itda edi. Aslida u boshdanoq Bo'ynoqdan nazarini aritmay turardi.

Sodiqlikka qasam ichmagan, lekin hamisha sodiq bo'lib qolaveradigan ajoyib jonivor! deb qoldi bir mahal allanechuk xayolchanlik bilan. Nazarimda, uning mana shu xususiyati tufayli qadimda odamzod boshqa hayvonni emas, aynan itni qo'lga o'rgatgan. Lekin o'zi sodiqlik borasida undan ibrat olmagani. Oqibatda esa... Bittasi, ana, Irina, bevafoqlik jabrini ko'raverib, oxiri ilmga suyanib qolgan. Qo'rs ko'ringani bilan o'zi ajoyib ayol.

Omonali jindek ichganidanmi, favqulodda ochilib, tog'begi bilan bearmon chaqchaqlashayotgan Irinaga zimdan qarab qo'yarkan, yonida o'tirgan qiz o'zidan yanada uzoqlashganini his qildi.

U shu paytgacha bu xilda fikrlaydigan ojizani uchratmagan, ko'rgan va bilgan ayollari esa to'ylarda arziyas latta-putta ustida talashib-tortishib, so'ng buni yillab gap-so'z qilib yuradigan qishloq xotin-xalajlari emasmi, qizning bu tarzidagi gap-so'zlarini hazm qilmoqqa qiynalmoqda edi. Uning tilida har bir so'z alohida ma'no kasb etib, tirikB-lik g'aroyib bir tusda tovlanayotgandek tuyulardi.

Qizning fikrlarini qiziqsinib tinglashda davom etarkan, Omonali o'zini beixtiyor ulfatlari davrasida tasavvur etib, uning gaplarini xayolan so'zma-so'z takror etib ko'rdi. Yo'q, jo'ralari bu xil gurgundan tez zerikadilar, aytilayotgan har bir so'zni aql tarozisiga tortib ko'rishdan ko'ra, uning ustidan qah-qah otib kuladilar. Bundan ham nochor tomoni, bu xushbichim qiz bilan jo'n tilda gaplashib bo'lmasdi. U bilan suhbat qurmoq uchun alohida hozirlik lozimdek edi. Keyinchalik u o'zi sezmagani holda qizni noma'lum xavf-xatarlardan qizg'anadigan bo'lib qoldi. Nega deganda, tog'da ko'zi qizarib yurgan cho'pon-cho'liqlar, notanish qizil etakni ko'rishi bilan aql-hushini butunlay yo'qotib qo'yadigan kimsalar yo'q emasdi. Ammo bu haqda qizga ayto'lmasdi, uni hurkitib qo'yishdan cho'chirdi.

Yigitning nazarida, suhbat maroqli bu qizga ko'ngil qo'yish aql doirasiga sig'maydigan ishdek tuyulardi. G'alati engil-boshi, ya'ni boshidagi soyaboni keng oqish shlyapasi va qomatini siribroq turgan libosigina emas, balki tog'ma-tog' tentib yurishlari ham g'ayritabiiydek edi. Agar u haqda otasi Sarkor lochinga gap ochgudek bo'lsa, hayratdan uning baroq qoshlari tepaga sapchishi aniq edi. Boisi, qizning yurish-turishi qishloq ahli ko'nikkan andozaga sira to'g'ri kelmaydi. To'g'ri, u tog'ma-tog' sanqib, o'zicha ulug' bir ishlar qilayotgandir hamda boshi to'la aql va ilm. Biroq, eng muhimi, u qishloq qizlariga o'xshamaydi. Boz ustiga, nasl-nasabi qanaqa, ota-onasi kim va shuningdek, otasi qanaqa nomard odam ekanki, shunday dilbar qizni kimsasiz bu tog'u toshlarga bemalol qo'yib qo'yibdi. Qisqasi, Gulasalday zukko va erkin qizlarni qishloq ahli osonlikcha hazm qilolmaydi.

Ularning qiz haqidagi ahmoqona tasavvurlarini yemirish esa o'limdan ham qiyin. Bunday qizlarni faqat buyuk muhabbatgina o'z bag'riga singdira oladi, xolos. Ayni shu muhabbat dastlabki onlardayoq qalbida chechak otganini Omonali sezmagani, buni shunchaki qizning suhbatiga oshuftalik deb o'ylagan.

Omonali so'ngsiz xayollar og'ushida g'orga yaqinlashganini sezmay qoldi.

U g'or joylashgan betda bir zumga to'xtadi.

Negadir unga kirmoq istadi.

Archazor oralab asta yuqoriga o'rlay boshladi.

G'or ichi o'sha-o'sha nimqorong'i. O'rtadagi tosho'choq uning kuygan yuragidek qorayib turardi. Bir chetda kimlardandir qolgan yarim dasta o'tin.

U qiz o'tirgan toshga cho'karkan, o't yoqish istagini tuydi.

Nega?

Havo iliq, o't yoqmoqqa hech hojat yo'q edi. O'z navbatida, bu savolga javob ham yo'q edi.

U tizzalarini quchgancha, chirsillab yonayotgan olovga ma'yus termulib o'tirarkan, beixtiyor mijjalari qalqigan yoshni tiyolmay qoldi. Aniqrog'i, tiyishni xayoliga keltirmadi. Va yig'i tofli tuyulib turgan bir pallada esa, hech kutilmagan ko'ksidan qaynoq bir o'kirik tashqariga toshib chiqdi.

Buni to'xtatib bo'lmasdi, to'xtatmoqqa endi uning chog'i yetmasdi va buni o'zi ham istamasdi.

Bu ovloq go'sha inson bolasi yaralganidan beri qancha-qancha odamga boshpana bo'lgan kimdir yovdan, kimdir yomg'irdan qochib, uning bag'rida orom topgan. Lekin ulardan birortasi ham Omonali kabi yovvoyi nido taratib, o'kirib-o'kirib yig'lamagan bo'lsa kerak.

Bu ayanchli sasdan g'or devorlari sukutda, baland shiftdan esa unga hamdardlik izhor etayotgandek, tinimsiz tomchi tomardi...

\* \* \*

Omonali ixtiyoridan tashqarida yuz bergan bu o'tli o'kirikdan so'ng, olovga tikilgan ko'yi, sassiz uzoq yig'ladi.

Aslida ota uyini tark etishdan maqsadi ham shu holi joyda qayg'uni to'shak, g'amni bolish aylab, to'yguncha, ko'zyoshlari ado bo'lguncha yig'lash edi. Ilgari agar birov, erkak zoti ham gohida yig'lamoqni istab qoladi, desa sira ishonmasdi, ko'zyoshini ayollarga chiqargan, derdi. Mana endi bilayaptiki, erkak zoti ham yig'larkan, faryod urib emas, sassiz va sadosiz, o'rni kelsa, o'zini idrok etolmay, bamisoli ayiqday o'kirib yig'larkan.

Omonali ro'zg'orini bo'lak qilgani bilan istagini amalga oshirolmadi xuddi birov derazadan mo'ralab turganday, to'yib-to'yib ko'zyoshi to'kolmadi. Ana shunda yigit kishi uchun yig'lamoq oson emasligini angladi. Bunga sari yuragi g'amga to'lib boraverdi. Kungaybet g'origa esa yig'lash uchun kirmagandi, nima uchun bosh suqqanini o'zi ham bilmasdi. Yuragida dimlanib yotgan alam yoshlarini kelib-kelib shu ovloq go'shada to'kishi mumkinligini hatto xayoliga keltirmagandi.

U ancha yengil tortgandan so'ng, bir muddat nechun bu tomonlarda daydib yurganini eslashga urindi. Darvoqe, qoplonning izini topish ilinjida yo'lga tushgandi-ku. Uf-f, ovchi xalqi uchun bundan noxushroq, bundan mashaqqatliroq mashg'ulot bo'lmasa kerak.

Nega deganda, ma'lum bir jonivorning ketidan tushish ov emas, borib turgan dahmazaning o'zi, ya'niki ipsiz, tizginsiz bog'lanishdek bir gap: ming xayollasangda-da tashlab ketolmaysan. Agar qo'l siltab ketar bo'lsang, o'rningga Asilbekka o'xshaganlar chiqadi. Unaqalar foydali yumushdan bo'yin tovlashadi, o'z manfaatlari yo'lida hatto itning qo'ltig'idagi burgani ham tinch qo'yishmaydi. Haqiqiy ovning yo'rig'i esa butunlay bo'lak, omading chopsa chopdi, chopmasa, imi-jimida izingga qaytib ketaverasan.

Qisqasi, tog'ning qaysi bir puchmog'ida o'z maylida yurgan qoplon Omonali uchun o'lja emas, balki Asilbekka o'xshash yomon o'roqchilar tomonidan payhon qilinmasligi uchun ko'klab turgan maysalar orasidan avaylab yulib tashlanishi lozim bo'lgan yovvoyi bir o't edi. Qishloqda chorvasi yilning iliq faslida tog'dan beri tushmaydigan odam borki, qoplonga ko'z tikkan, tezroq uning bir yoqli bo'lishini istaydi. Qolganlar esa shunchaki hangomatalab, qani, Omonali bu ishni eplay oladimi-yo'qmi deganday. Xullas, jo'yali bir fikr yurituvchidan ko'ra, tomoshabin ko'p. Oqmanglay qorli tog'lardagi sanoqli qoplonlardan biri ekani va uni avaylab-asrash lozimligi xususidagi o'y biror kimsaning boshiga kelmaydi.

Bu qo'riqxonada mutasaddilari, jumladan, Meliqul tog'begining tashvishidek, qishloq ahli bu masalaga o'gay ko'z bilan qaraydi. Obrazli yo'sinda aytganda, sarhadsiz qo'riqxonada hududi kishilar uchun go'yo begona bir bog' va har kim chog'i hamda uquvi yetgancha bu bog'dan ko'proq meva o'marish payida bo'ladi. Bu ishda ular qanoatni bilishmaydi, "insof" degan tushunchani negadir unutib qo'yishadi. Agar, mabodo, bu holatning teskarisi yuz bersa, ya'nikim kishilar o'z "bog"lariga begonalar oralaganini sezib qolishsa-chi, tamom ular dodlab olamni buzishadi. Qoplonning esa yo'q-bor aybi shu o'zga bog'ning "meva" siga ko'z olaytirgani. Mana, "bog" egasi Hamidqul oqsoqol birgina "meva" qo'zisining alamiga chidayolmay, Omonalining huzuriga yugurib keldi. Menga uning joni kerak, emasam tinch qo'ymaydi u bizni, deya qaqshab-qaltiradi. Oqsoqolga olamdagi jamiki narsadan o'sha savil ketgan qo'zisi qadrliroq, unga qolsa, qoplon degan allaqanday bir jonivor noyob tur sifatida yer yuzidan butunlay yo'q bo'lib ketmaydimi, unga desa, cho'qqisidan oppoq qor arimaydigan manovu cho'ng tog'larni yer yutmaydimi, eng muhimi, mulkiga birov dahl qilmasa hamda qo'ylari yiltillab semirib, sovliqlari yil sayin egiz qo'zilab tursa bas.

Tevarak muhitdagi o'zgarishlar boshqalar qatori o'zining ham turmush tarziga dahl qilishi mumkinligini hatto tasavvuriga sig'dirolmaydi. Bu to'g'rida gap ochsang, o'zini dono bilib, ensasini qotiradi. Xullas, bunaqalar devordan narini ko'rmaydi, ko'ra bilmaydi. Mabodo odam bolasi bilan yovvoyi jonivorlarni yuzlashtirishning iloji bo'lganidami, qoplon deganlari odamzotning kurakda turmaydigan qator kirdikorlarini ochib, birma-bir sanab tashlagan bo'lardi. U shunchaki gapirmagan, balki ajdodlari xotirasida jamlangan quyidagi ma'lumotlarni pesh qilib, so'zlagan bo'lardi, derdiki, sizlar bu tomonlarga kelgunga qadar tog'lar kiyikka to'la, daryo bo'ylari qunduzga serob, o'tloqlarda g'ujg'on o'ynagan turli yerteshar jonivorlarning son-sanog'i yo'q edi. Sizlar kelib bariga qiron keltirdilaring. Yaylov to'la qo'ylarning bo'la turib, eti mazali deya, kiyiklarni otdinglar, moyi dardga davo deya, qunduzlarni quritdinglar, olachipor mo'ynamizga havaslaring kelib, bizga chang soldilaring. Oqibat, biz o'ta sanoqli qoldik, bu yoqda kiyiklar kamayib, qunduz deganlari, oqB-shomgi yulduzlarday, unda-bunda ko'zga chalinadigan bo'lib qoldi. Tog'da yemagimiz kamayib qolgach, endi olgan qarzlaringni qaytaringlar, deya suruvB-laringdan atigi bittagina qo'zini o'margandim, shuniyam ko'p ko'rdilaring.

Omonalining xayolidan o'tgan bu o'ylarni Gulasal aynan shunday ifodalagan bo'lardi. Umuman olganda, qiz balo edi, gohida sho'xligi tutib, archalar tilidan so'zlagani yetmagandek, chechaklar tilidan qo'shiqlar ham aytib qo'yardi. U derdiki, tabiatdagi barcha narsa jonli va har biri muloqot qila olish salohiyatiga ega, faqat biz odamzodgina buni idrok eta olmaymiz. Zero, inson yaralibdiki, yon-tevarak nari tursin, loaqal bir-birini anglab yetolmaydi. Holbuki shunday ekan, ular dov-daraxtlar dodini, o'lanlar qayg'usini, yovvoyi jonivorlar iztirobini qayerdan ham his etishsin!

Gulasal o'zining bu tarzdagi fikrlari bilan bilib-bilmay, uning olis bolalik sarhadida qolib ketgan va hozirda ham onda-sonda

yuzaga tepchib turadigan go'zal tuyg'u torlarini tebratardi. Yigitning asliga qaytishiga, tevarak-atrofga tiyrak bir nigoh bilan nazar tashlashiga undardi. Unutilgan holat va hodisalarni qayta esiga tushirardi.

Esida, ayni yoz chillasida otasi o'gay enasi bilan janjallashib qolib, eshigi oldidagi yagona tokni kesib tashlagan. Omonali, bola emasmi, tok tanasidan oqayotgan selga boshqalar kabi bee'tibor bo'lmay, uni tokning ko'zyoshlari deb o'ylagan va bundan qattiq yozg'irib, bu haqda aytmagan odami qolmagan.

Natijada, momosi Bahrinisoning qistovi bilan Sarkar lochin bolani otiga mingash-tirib, negadir mulla Saidga emas, qo'shni qishloq-dagi mulla Doniyorga olib borgan. Mulla, nima gap, deya otaga qaragan, ota qolib, bola javob bergan.

Men... o'zim ko'rdim, eshik oldidagi tokimiz yig'ladi, uch kun tinimsiz yig'ladi!..

Mulla Doniyor ma'nodor bosh irg'ab, boshqa narsa so'ramagan, bolani qoshiga o'tqazib qo'yib, uzoq o'qigan. Momosi esa bu bilan cheklanib qolmay, qora tovuq so'ygan, uning qoni bilan bolaning manglayi va tanglayini bo'yagan. So'ng, senlarning janjallarining tufayli nevaramning esi og'ay dedi, deya otasi va o'gay enasiga rosa zahrini sochgan. Shunda bola Omonali bir narsani fahmladiki, agar tuyg'ularini hadeb oshkor etaversa, kattalar orasida albatta janjal qo'parkan. Keyinchalik bu xil tuyg'ularini tengqurlariga izhor etadigan bo'ldi. Afsuski, tengdoshlari kattalardan battar tosh edi, uni mutlaqo tushunishmadi. Oqibatda, butun his-to'yg'ulari ichida dimlanib qolaver-ganidanmi, bola dag'al tortdi. Bamisoli shaffof buloq ko'zini toshlar bosdi, bekitdi, o'zga nigohlardan pana qildi. Gulasal esa o'zining beg'ubor fe'li va serjilo dunyoqarashi bilan o'sha bekik buloq ko'zini ohista ochib yuborgandi. Qiz har qanday holat va vaziyatga, tabiat manzarasi va kishining ruhiyu ruxsoriga dilni quvnatadigan darajada baho bera olardi. Masalan, yakkatutlik Yodgor kal yarg'oq boshini yashirish uchun qishin-yozin boshidan telpagini qo'ymasdi. Xuddi taqir boshlik katta aybdoy, kuya yegan qozondek telpagini hamisha qoshigacha bostirib yurardi. Ittifoqo, kunlardan birida telpagi tezoib soyga tushib, oqib ketadi. Bunga tasodifan guvoh bo'lgan Omonali yonida turgan qizning sharaqlab kulishini kutadi. So'ng, unga jo'r bo'lib, o'zi ham miriqib qah-qah o'tmoqchi edi. Biroq kulgu o'rniga hayratli bir xitobni eshitadi.

Voy, buni qarang, Suqrotning xuddi o'zi! Keng manglay, taqir bosh... Quyib qo'yganday, Suqrotning o'zi!

Qizning hayrati shusiz ham bo'lari bo'lib turgan Yodgor kalning g'azabini qo'zitadi. Suvda oqib ketgan ming yillik qadrdoni bo'lmish telpagingin alaminu undan olmoqchiday qizga o'qrayib qaraydi. Biroq Gulasalning nigohida o'zi kutgan kinoya va istehzoni ilg'amagach, qahri so'nib, Suqrotning kim, menga o'xshash bir bedavo kalmi, deydi o'ksib.

Suqrot buyuk donishmand! dedi qiz uning shunday odamni bilmasligidan hayrati jo'shib. Siz aynan shu odamga o'xshaysiz! Bunaqa boshni telpak ostiga bekitmay, odamlarga ko'z-ko'z qilib yurishingiz kerak, amakijon.

Yodgor kal asalchi edi.

Uning bu yorug' olamga kelib bilgani mana shu tog'-toshlaru ellikdan ziyod asalari qutilari hamda har kuzakda yiqqan-tergan asalini arzon-garovga ko'tarasiga olib ketadigan Hamidqul oqsoqolning shaharlik qudasi Mirkomil asalfurush edi. Yodgor kal ular bilan faqat foyda-ziyon xususida so'zlashar-di. Tanho qolgan kezlari esa, kunchiqishdagi cho'ng tog'larga xayolchan boqib, doim bir narsani, ya'ni asalari qutilarini yuksak vodiydagi archazorga olib chiqishni o'ylardi. Biroq keyin asalxo'r ayiqlar tinch qo'ymasligini o'ylab, hamisha shashtidan qaytardi. So'ng qirriqlikda bir-biridan qolishmaydigan qudalarning qutqusi va aldoviga uchib, asalni arzonga berib yubormadimmikan, degan shubhaga borardi. O'zicha ulardan picha arazlagan kishi bo'lardi. Uning hayot tarzi shu edi va bu dunyoda Suqrotdek buyuk shaxslar yashab o'tganini esa hatto tasavvuriga sig'dirolmasdi.

Eng qiziq jihati shu bo'ldiki, qiz Suqrot haqida gapirgani sayin Yodgor kal Omonalining ko'z o'ngida sekin-asta bo'lak qiyofa kasb eta boshladi. Keng manglay, taqir boshi ko'ziga ortiq xunuk ko'rinmay qo'ydi. Telpakda qarimsiq ko'ringan kimsa yalangbosh holda anchayin yosh va bama'ni tus olayotganini tuygani sari e'tirofda gap ko'pligini, so'zning qudrati o'ta beqiyos ekanligini yurak-yurakdan his eta bordi. So'z ila qora tuproqqa qorishtirmoq va shuningdek, so'z ila yettinchi osmonga olib chiqmoq mumkinligini yana bir karra idrok etdi. O'shanda so'z ta'sir qildimi, har holda Yodgor kal iliq kunlari qozondek telpak kiyishni bas qildi va o'ziga "Suqrot" degan laqabni orttirib oldi.

Gulasal hayratga yo'ldosh edi, loqaydlik esa undan yetmish yetti chaqirim nariga qochardi. U tog'lar bilan so'ylashardi, chechaklar bilan kuylashardi. Bunga sari qiz yigit uchun qo'l yetmas bir malakdek tuyula borardi. Uni ko'rmoq va so'ylashmoq mumkin, lekin suymoq nojoizdek edi. U misli bir kapalak edikim, chechaklar uzra parvozini maroq-la kuzatmoq mumkin, xolos. Agar tutib ko'rmoqqa urinsang, tutday to'kilib tushadigandek edi.

O'sha fojea yuz bergan kuni u dilidagini qizga izhor etmoqchi edi. Uch so'z dangina iborat jumlaning tongga qadar takror etib chiqarkan, aytadiganimni shartta-shurttan aytamanu hadaha izimga qaytaman, so'ng ertasi yana huzuriga boraman, agar chodiridan kulib chiqsa, baxtim, qovoq uyub, qoshini chitsa, o'limim, sharsharaning suviga tushib, yuragimning taftini bosmoqdan boshqa choram qolmaydi, deb o'ylagandi.

Shu kuni u qizni qidirib vodiya bordi. Chodirda Irinaning yolg'iz o'zi allanimalarni yozib-chizib o'tirgan ekan. Agar u, kut, kep qolar, deb tutib qolmaganida, bu falokatning oldi olingan bo'larmidi. Nega deganda, Omonali uni chodirda uchratmagach, ortiq sermalanmay, yo'l-yo'lakay Yalangb-to'shni bir rov ko'zdan kechirib, so'ng Toshloqsoy o'zani orqali Qizilqoyaga ko'tarilmoqchi edi. Qiz o'tgan safar shu tarafda noyob o'simliklar serob-ligini aytganday bo'luvdi. U Gulasalning tog'da hech narsadan hayiqmay bemalol yurishidan doim hadikda edi. Bundan ham yomoni, Asilbekning shu atrofda o'rallashib qolgani edi. Bir gal oldidan chiqib, unga bet bo'lgan.

Bu tomonlarga ko'p doriydigan bo'p qolB-dingmi, oshna?

Yuribmiz-da shu endi, Asilbek, sening nima ishing bor, deganday unga istehzoli qaradi. Oyog'i bor - yuradi, og'zi bor - gapiradi deganday, yuribmizda biz ham xudo deb. Yo sendan ruxsat so'rab yurishim kerakmi?

Tek yursang bo'ldi!

Tekmi, tek emasmi, har holda sendan so'rab yurmasam kerak!

Azaldan ularning so'zi chiqishmasdi, shunga yarasha, yuzlarida nimtabassum, adovat-la xayr-xo'shlashdilar. O'sha kuni Omonalining ko'ngli qandaydir yomonlikni sezganday bo'luvdi. Buning ustiga, fojea yuz bergan kuni Asilbekni Qizilqoya hududida ko'rganlar bor. Jumladan, o'ziyam, u tomonga qadam bosmadim deb emas, qizga hatto barmog'imning uchini tekizmadim, deya zorillab turibdi. Har narsa bo'lganida ham kiyikday epchil qiz Oqartosh o'zaniga bejiz tushib qolmagan, qandaydir tazyiqdan qochgan u. Ammo qo'lga tushmagan o'g'ri o'g'ri emas degandek, buning tagiga yetish mushkul edi. Shunga qaramay, Omonalining bor gumoni Asilbekdan edi.

\*\*\*

Kungaybet g'ori tomonidan qaralganda, QizilB-qoya deyarli tik jarlik. Jarlik betiga sezilar-sezilmas torso'qmoq chirmashgan

8 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ



bo'lib, toshi yengil odam undan bemaolol yuqoriga o'rlashi mumkin. Ammo esi bor odam bu so'qmoqqa sira yaqinlashB-maydi, chetlab o'tadi. Unda asosan tog' jonivorB-larigina harakatlanadi.

Omonali dastlabki belgiga, ya'ni OqmangB-layning tezagiga ana shu so'qmoq belida duch kelgandi. Biroq bu narsa hech narsani anglatmaydi. Qoplonning izini bu manzildan emas, tog'u toshlar ichkarisidan qidirish lozimligini hatto qo'lga umrida yaroq tutmagan odam ham yaxshi biladi. So'qmoqdagi belgi esa yirtqich quyiga Qizilqoya belidan enganini bildirardi, xolos.

Ko'kka nayzadek sanchilgan qoya tepasidagi ulkan qizg'ish xarsang unga cho'qqi tusini bergandek esa-da, aslida qoyaning xarsangdan holi qismi yashil maysasi tizzaga uradigan, tevaragi archazor keng sayhonlik edi. Bu sayhonlik kunchiqish tomonga cho'zila borib, ko'ndalang tushgan Archalidovonning qoq biqiniga borib tutashadi. Ayni shu dovon ortidan esa yuksak va sirli tog'lar saltanati boshlanadi.

Boshidan qishin-yozin oppoq qor arimaydigan uzoqdagi serviqor cho'qqilar QizilB-qoyadan turib qaralganda, dastlab qo'l yetar masofada juda yaqin tuyuladi. Biroq saldan so'ng bu saltanatning mahobati va cheksizligini, yaqin ko'ringan cho'qqilarning esa olisdaligini dabB-durustB-dan fahmlab, uning qarshisida bir zum lol turib qolasiz. Shunga qaramay, tog'lar sizni asta aldashda davom etadi. Agar yana jindekkin o'lg'a yursangiz, qarshingizdagi Archalidovon ortidan sir-sinoatga yo'g'rilgan yangi bir olam yuz ochadigandek, sayhonlik so'lidagi tubsiz Toshloqsoy jarligi yoqalab, dovon tomon cho'zilib ketgan ensiz so'qmoq bo'ylab yoxud bo'liq maysali sayhonlikni tikkasiga kesib, beixtiyor holatda o'sha tomonga intilasiz. Biroq sizning dastlabki bu jahdingiz yarim yo'lga yetib-etmay, qattiq charchoq bilan almashingandan keyin, bu tog'u toshlar olamida barcha narsa qo'l yetar masofada yaqin ko'ringani bilan aslida juda uzoqdaligini qayta his etib, andak shashtingiz qaytadi. Agar izingizga qayrilB-may, o'lg'a yurishda davom etsangiz, sayhonlikning dovonga tutash qismida yana bir tanggu tor so'qmoqqa duch kelasiz. Bu so'qmoqning narigi boshi dovonga tirmashgan bo'lib, bergisi esa ko'rimsiz butalar oralab Toshloqsoyga enadi. Bu so'qmoq Qizilqoyaga ko'tariladigan asosiy yo'llardan biri hisoblanadi. Yoz o'rtasi qurib, ko'klamda behad quturidagan Toshloqsoy suvi Qizilqoya poyini yalab-yulqab o'tib, bir yarim chaqirim quyidagi Egrisoyga borib quyiladi. Egrisoydan narisi qishloq uylari chor tarafga sochilgan keng o'rlik.

Bundan tashqari, Qizilqoyaga Archalidovonning uzviy va g'arbiy qismi hisoblanmish Kattaqir orqali ham ko'tarilish mumkin. Bu ulkan qirlik kunbotish tomonga chuvalana borib, Asilbekning do'ppidekkina qishlog'ini o'zining sanoqsiz o'ngirB-laridan birida qoldirib, yanada nariga cho'zilib ketadi.

Oqmanglay oqsoqolning suruviga KattaqirB-ning Qizilqoyaga yaqin toshloq o'ngirlaridan birida hamla qilgandi. Mana endi, Omonali necha kundirki tog'ma-tog' daydib, sang'ib, uning izini qidirib yuribdi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tog' odami avvalo bir nimaga tikilmasin, tikildimi, tamom o'sha narsaning jonini olmay qo'ymaydi. Bunaqa paytda ta'qibdagi jonivorning joniga na qo'riqxonahadsizligi ora kira oladi, na uning qo'riqchilari. Boz ustiga qo'riqxonahadsiz-hisobsiz, uning sanoqli nazoratchilari adadsiz bu hududning bo'yiga qaraydimi, enigami.

Bir qarashda, bir-biriga mingashib ketgan bu yuksak tog'lar, chuqur daralar, archazor o'rmonlaru chigal chakalakzorlardan qoplonni izlash pichan orasidan igna qidirishdek bir gap. Biroq OmonB-aliB-dek serfahm ovchi uchun bu yumush unchalik ham mushkul emas. Buning uchun birinchi galda joniB-vorning harakatlanish maydoni va yurar yo'llari aniqlanib, o'rganib chiqilishi lozim, qolgani esa keyin o'sha sayyodning ziyrakligi, fahm-farosati hamda sabr-toqatiga bog'liq.

Omonali uni yuksak tog'lar bag'ridan qidirardi. Qizilqoyaga kelsak, yaqingacha u yigit uchun tog'larB-ning shunchaki bir bo'lagi edi. Endilikda esa mudhish fojea yuz bergan xosiyatsiz bir makon sifatida yuragini dog'lab, o'rtab turardi. U Qizilqoyani ko'rarga ko'zi yo'q esa-da, yo'qotgan eng aziz kishisining izlarini ko'zlariga surtmoqB-chiday, negadir, beixtiyor, o'sha tomonga intilaB-verardi.

Shu paytgacha u bu manzildan necha bor o'tib qaytmagan va bir kun kelib ayni shu hududda hali izhor etishga ulgurmagan ilk muhabbatini fojeali tarzda yo'qotishi mumkinligini kim ham o'ylabdi deysiz. Bu-ku mayli, umrida ko'rmagan shaharlik bir qizga ko'ngil berishi uning xayoliga kelibdimi. Uylanish deganda, u yaqin-yaqingacha qishlog'i qizlaridan o'zgasini ko'z oldiga keltira olmasdi. Bir kun kelib shulardan biriga uylanishiga imoni komil edi.

U shu o'yda bamaylixotir yurganida, kutilmaB-ganda uning hayotiga keng soyabonli shlayapa kiygan qiz kirib kelsa bo'ladimi. Boshida qizning g'ayritabiiy ko'ringan engil-boshi, ochiqligi hamda behad quvnoqligi unga erish tuyuldi, unchalik yoqtirmadi uni. Biroq qizi tushmagur Xudo bergan ulug' xususiyati bu jonli olamni qizg'in seva ola bilishi bilan yigitni butunlay o'ziga rom etib, sehrlab qo'ygandi. U, masalan, yigitga tevarakda guldan gulga uchib-qo'nib yurgan kapalakB-lar yoxud tinib-tinchimas chumolilar, etik bilan bemaolol toptab, yanchib ketsa bo'laveradigan shunchaki hashoratlar emas, balki to'lqinlanib, mavjlanib turgan chinakam hayot ekanini anglatdi. Yoz o'rtasi o'rilib, so'ng tomga chiqarib bosiladigan pichan g'aramlari orasidagi turfa xil tog' chechaklari shunchaki mol ozuqasi emas, balki o'rganilishi lozim bo'lgan o'simliklar dunyosi ekanini uqtira bildi. Shusiz ham tabiatga juda yaqin bo'lgan Omonali azaldan shuni idrok etib kelardiki, bu olamdagi jamiki narsa bir-biriga shu qadar chambarchas bog'lanib ketganki, agar biror yerda jindek kemtiklik yuz bersa, buning oqibatida tuzatilishi qiyin bo'lgan ulkan o'pirilishlar vujudga kelishi mumkin.

Buning uchun juda uzoqqa borishi shart emas, uning juz'iy bir alomatini o'z taqdiri misolida yaqqol ko'rib turibdi: qizning o'limi tufayli u ota uyini tark etdi, ota uyini tark etishi bilan umumqo'radagi qo'y-qo'zilar ikkiga bo'lindi, mollarning ikki bo'linishi esa o'gay ukalari ko'nglida adovatli tuyg'ularning uyg'onishiga sabab bo'ldi. Va shuningdek, bu tog'u toshlarning erkasi, kishilar ta'бири bilan aytganda, tiyiqsiz daydi iti bo'lgan Asilbekning erki va oyog'iga ma'lum darajada tushov urildi. Endi u anchagacha yurak betlab bu tomonlarga kelolmasa kerak.

Omonali avvaldan hayot va tiriklik xususida o'zicha mushohada yuritishni yaxshi ko'rardi. Shuning uchunmi, qishloqda hamma bilan ham osh-qatiq bo'lib ketavermasdi. U aksariyat jo'ralarining o'ysizligi va fikrsizligini suymaganidek, og'aynilari ham uning "faylasuf"ligini ko'pam yoqtirishavermasdi. Yigitning uzoq-yaqin og'aynilari serob, lekin durustroq hamfikri yo'q edi. Keng shlyapali qiz esa o'sha bo'shliqni to'ldirganini dastlab anglab yetmadi. Anglab yetganida esa, yuragida boshqa nozik tuyg'ular tomir otib ulgurgandi.

U o'zini har qancha beparvo tutishga urinmasin, uning qizga bo'lgan munosabati bir oz o'zgachaligini el-ulus bildi, xeli-xesh bildi, biroq qiz bilolB-may ketdi. Qishloq qizlari esa yigitni rashk qilib, ayrimlari hatto salom-alikniyam yig'ishB-tirib, ters qarab o'tadigan bo'ldi. Turgan gap, ular orasidagi bu yaqinlikdan Asilbek ham bexabar emasdi. Biroq uning kir ko'ngli qiz va yigit orasidagi munosabatni chin muhabbat ekanligini idrok etolmadi. Omonalini o'zi kabi "shirin luqma" ilinjida lab yalab yurgan bir sayoq it deb o'yladi. U tarang shimda sonlari dirkillab turadigan mo'rchamiyon bu qizni ovloq joyda qo'lga tushirish, yanada aniqrog'i, uning o'z iborasi bilan aytganda, tog'da kiyikday irg'ishlab yurgan bu "shirin luqma" ta'mini Omonalidan avvalroq tatib

ko'rish istagida yona boshladi.

Asilbek azaldan nozik tuyg'ulardan mosuvo, razil kimsa edi. Pana-pastqam joylarda yakka-yolg'iz juvonlarga tashlanib, nafsini qondirishga odatlangan bir mal'un edi. U o'z hayoti davomida bu jirkanch ishga bir necha bor qo'l urgan va domiga tushgan ayollarning gap-so'z bo'lishlaridan qo'rqib, hamisha dardlarini ichiga yutib ketaverganligi bois har safar jazosiz qolaverardi. Lekin o'sha ayollar hozirgacha uni beayov qarg'ab kelishadi. Qarg'ish tufaylimi, yo taqdiri azalmi, u hanuzgacha so'qqabosh, doimo biror-bir qizga sovchi qo'yadi, hatto to'y kuniyam belgilanadi, biroq bitib turgan ish hech kutilmaganda buzilib ketaveradi. Bu sinoatdan hamma hayron, faqat ugina bu g'alati savdoga e'tibor bermaydi, peshonaga bitgani bo'lar bir kun, deya parvoyu falak yuraveradi.

U Gulasalga ko'z tikarkan, kim bilan o'ynashaB-yotganini yaxshi bilardi. Omonali boshqalar kabi uloq chopmaydi, davralarda bel tutishmaydi, ammo changaliga tushgan odamning belini sindirmay qo'ymaydi. Biroq hamma balo shunda ediki, AsilbekB-ning ko'ngli qizga juda yomon sust ketgandi, agar harom nafsini qondirmasa, turgan yerida til tortmay o'lib qoladigandek edi. Boz ustiga, yetti yot begona bir qiz uchun Omonalining bu qadar quturib ketishini hatto xayoliga ham keltirmagandi. Mabodo qilmishi oshkor bo'lar bo'lsa, buyurganniki emas, yugurganniki deya, vaziyatdan osongina chiqib ketmoqchi edi. Eng yomoni, u qizni odam sifatida emas, bemalol dahl qilishi mumkin bo'lgan navbatdagi o'lja o'rnida ko'rmoqda edi. Jazosiz qolgan avvalgi qilmishlari tufayli u yanada surlashgandi. Bu tog'u toshlarda unga hamma narsa mumkindek edi. Tog'lar barcha nojo'ya harakatlariga imkon yaratgandek, bu galgi tajovuzini ham, odatdagidek, hammadan sir tutadigandek edi.

Ha, tog'lar barcha narsani sir tutadi.

Shu kunlarda u qoplonning izlarini Omonalidan sir tutmoqda edi. Biroq yigit ham anoyilardan emas, toptalgan o't-o'lanlar, singan novdalar, yerga tushgan yaproqlar holatidan qaysi jonivor qay tomon va qachon o'tganini adashmay aniqlaganidek, vaqt-soati yetib Oqmanglayni iziga tushishi tayin edi. U tog'dagi barcha baland-pastlikni, yaxshi va yomon makonlaru xosiyatsiz joylarni bamisoli besh qo'lday bilardi.

Qizilqoya tubidagi, Toshloqsoy o'zanidagi qirrador xarsangli maydon ana shunday xosiyatsiz joylardan biri hisoblanadi. Qoya tepasidagi Oqartosh komiga tushib qolgan har qanday tirik jon ayni mana shu toshlar ustiga yiqilib o'lim topadi. Shuning uchun odamlar bu yomon yerdan nariroq yurishga harakat qilishadi. Bu holat Omonaliga ham begona emas. U har gal qirrador xarsangli maydonni chetlab o'tarkan, toshlar yuzidagi qora dog'larni ko'rganday bo'ladi va uni shahidlar qoni deb o'ylaydi. Kishilar gapiga qaraganda, yuqoridagi Oqartosh bilan quyidagi bu xarsangli maydon o'rtasida qandaydir ilohiy bog'liqlik bor emish, toshlar yuzidagi qon dog'lari eskirishi bilan Oqartosh yangi qurbon talab qila boshlarmish. U bu gaplar bid'at ekanligini yaxshi bilardi-yu, lekin jondek aziz mahbubasi uning navbatdagi qurboni bo'lishini xayolining ko'chasiga ham keltirmagandi.

Qon dog'lari...

Bu dunyoda suyuqli kishingning qon dog'lariga keyinchalik ro'paro' kelmoqdan ortiq azob yo'q ekan. Bunaqa paytda inson bolasi bu yorug' olamga kelganiga, shu zaminga oyoq qo'yib, shu havodan nafas olayotganiga ming-ming pushaymon yerkan. Eng dahshatlisi, bunaqa paytda bosh urmoqqa biror teshik topolmay qolarkan va buning azobi ko'p yomon bo'larkan, ya'ni yerga bamisli tomchi kabi singmoq istarkanu, lekin zamin uni qabul qilmas ekan. Osmonga sapchib, oppoq bulutlar qatida ko'zdan g'oyib bo'lmoqni xohlarkanu, lekin ona zamin, tolengda neki bor, barini bag'rimda boshingdan kechirmoqqa mahkumsan, deganday ko'kka intilB-mog'ingga imkon bermas ekan.

U bu qo'tir dunyodan har neki yomonlikni kutgan esa-da, quyosh charaqlab turgan ajoyib kunlardan birida mahbubasining qonga belangan jasadiga duch kelaman deb sira o'ylamagandi.

O'sha kuni Irina bilan xayrlasharkan, Gulasalning ruxsorini ko'rmoqqa imoni komil edi. U shu shirin umidda Toshloqsoy o'zani orqali Qizilqoyaning dovonga tutash qismidagi tor so'qmoqni qoralab borarkan, qoya qarshisidagi do'nglikda sochilgan qo'y-qo'zilarga avvaliga e'tibor bermadi, cho'poni bilan qiziqmadi. Va qachonki qoya tubidagi xarsanglar orasida ilonga duch kelgan baqadek qotib turgan mulla Saidga ko'zi tushgachgina jindek hushyor tortdi.

Uning gapga tutib qolishidan cho'chib, astagina o'tib ketmoqchi edi, bo'lmadi, mulla Said, qo'l sermab, yoniga chaqirib qoldi.

Buni qara, Oqartosh yana qonsirabdi! dedi mulla Said u yaqinlashgach, g'amgin ohangda: Ko'z o'ngimda qoyadan yiqilib tushdi. Men huv do'ngda edim... Bu... xuddi it quvlaganday yugurib keldi-da, Oqartosh o'zaniga tushib qolib... Yosh narsa... essiz juda yomon bo'ldi-da!

Omonali uning gaplarini tuzukroq idrok etib-etmay, ko'ngli g'ashlangan ko'yi, qirrador xarsanglar oralab, oldinga intilarkan, ko'z o'ngida yuz ochgan dahshatli manzaradan esi og'ay dedi. U misli haykalday tosh qotib turarkan, hech ko'zlariga ishonmasdi, aniqrog'i, ishonolmasdi. Bu aslo yuz berishi mumkin bo'lmagan hol edi. U suyanining bu ahvolda qoniga belanib yotishini ko'rgandan ko'ra, olis osmon qa'ridagi oyning yiqilib tushishiga yoxud tunlari o'zidan yorqin iz qoldirib, qorong'i osmonni tilimlaydigan uchar yulduzlardan birining qoyaga urilib, tog'u toshlarni qattiq larzaga soliB-shiga mingdan ming rozi edi, faqat bu fojeaga emas. Yigit xuddi tush ko'rayotgandek edi. Nazarida, halizamon Gulasal, bir hazillashgim keldi-da, deya o'rnidan dik sakrab turadigandek edi. Omonali shu umidda ko'zlarini ohista yumadi. Qizning sho'xchan kulgusi quloqlarini siypalashini kutadi. Yo'q, u kutgan hol yuz bermadi. Ro'y berishi mumkin ham emasdi. U asta ko'zlarini ochadi va qizning o'sha-o'sha qirrali xarsanglar orasida toshlarni lola rangga bo'yab yotganini ko'radi.

O'sha kuni Omonali asriy xarsanglardan ulgu olganday, tom ma'noda, tosh qotdi. Mulla Said keyin nima dedi, qizning jasadi yoniga kimlar keldi, kimlar ketdi biror nimani anglayolmadi, hatto Irinaning faryod urib chinqirishlariniyam uni o'ziga keltirolmadi. Karaxt shuurida yakkash bir o'y charx urardi.

Bo'lishi mumkin emas!

Qachonki, qizning jasadi o'rab-chirmab olib ketilayotgandagina unga jon kirdi va qoqilib-suqilib odamlarga ergashdi. Yo'lda telbanoma ravishda necha bor, beringlar menga, deya jasadga qo'l cho'zdi. Lekin, rang ko'r-hol so'r, deganday uni qizning yaqiniga yo'latishmadi.

Bugun ham Omonali Qizilqoya orqali yo'lga tushgandi. U qoya tepasida bir zumga nafas rostlarB-kan, odatdagidek, nechun bu tomonda o'ralashib yuribman o'zi, degan o'yga bordi. Va o'yini adoqlab ulgurmay, xayolchan bir tarzda tevarakka ko'z tashlarB-kan, odatdagidek, na xuddi nimadandir arazlaB-ganday, sayhonlikning bir burchagiga qisilib olgan bo'liq archalarning g'alati holatiga e'tibor berdi, na tonggi quyosh nuridan qirmizi tus olgan tog'lar boshidagi alvon rangni payqadi, na boshqa narsalarni. Holbuki, tevarak-atrof kishi aqli tong qolarli darajada go'zal va fusunkor edi. U esa ko'z o'ngidagi bu go'zallikni idrok etishni istamaB-gandek, qo'nim topgan joyida ko'pda hayallamay, qoyaning Toshloqsoy qismidagi Oqartosh tomon yurdi.

Tog' jonivorlari solgan ensiz so'qmoqqa ko'ndaB-lang tushgan va quyidagi Toshloqsoy tomon keskin engan, jar labidagi toshloq

o'ngur Oqartoshning bir qarashda hech xavfli joyi yo'qdek edi. Lekin ungur o'zani sal turtkidan selday oquvchi chag'ir toshlardan iborat bo'lib, unga bexos tushib qolgan tirik jonning qutulib ketmog'iga hech bir imkon yo'q edi.

U birda Oqartoshning qonsirab, har yili qurbonlik talab qilishi haqida qizga aytganida, Gulasal kulib, yo'q, biz tabiatning emas, ehtiyotB-sizlik qurboni bo'lishimiz mumkin, degandi.

Mana endi, qizning o'zi uning qurboniga aylanib o'tiribdi.

\* \* \*

Nihoyat, to'rtinchi kun deganda Omonali qoplonning iziga tusha oldi. Uning qayerlarda o'rlab, qayerlarda qo'nib o'tishini obdon o'rgandi. Jonivor eng ko'p qo'nib o'tadigan manzillardan biri qorli cho'qqiga tutash Bo'zbuloq darasi muyulishidagi uch asrlilik kekxa tol tagi edi. Lekin u haftaning qaysi kunlari va kunning qaysi paytlarida bu manzilga qo'nib o'tadi, bunisi hozircha noma'lum edi. Biroq yigit uchun buni aniqlash unchalik ham mushkul ish emas. Ozigina hafসা qilsa yoxud doimo qaltis paytlardagina yuzaga tepchiydigan ichki sezgisi pand bermasa, bu sinoatning tagiga yetmay qolmaydi.

Insoniyatga nisbatan yovvoyi olamga xeshligi ko'proq bo'lgan kekxa tol o'z bag'rida tin olishni xush ko'radigan jonivorlarni tashqi nigohdan saqlash va ihotalash uchun uzun novdalarini yerga egib, o'ziga xos "o'tov" hosil qilgandi. U azal-azaldan inson qavmini yoqtirmasdi. Nega deganda, tog'ning bu qismiga kamdan-kam hollardagina o'rlaydigan odam bolasi hech vaqt tinch kelib, tinch ketmaydi. Tagida olov yoqqani yetmagandek, shoxlarini sindirib-sidirib ketadi. Yovvoyi jonivorlarning esa yo'rig'i bo'lak, ular uning shox-butoqlariga daxl qilmaydi, pinjida tinchgina orom olish bilan kifoyalanishadi.

Axir bu qadar haybatli tus olmog'i hamda uzoqdan-uzoq umr kechirmog'i uchun kekxa tol o'z hayoti davomida nimalar qilmadi deysiz. U shu o'tgan davr ichida necha bor o'lib, necha bor tirilmadi deysiz. Toshlar orasiga chuqur ildiz otmoq unga oson kechibdimi, buning uchun ne bir mashaqqatlarni, ne bir kuymanishlarni boshidan kechirmadi deysiz.

Avvaliga zig'irdekkinaga bir urug' edi u. Tog' shamoli uni bu bepoyon tog'li hududning allaqayerlaridan uchirib kelib tashlagandi. U qoya yuzidagi bir kaftgina tuproqda nish urib, asta ko'z ocharkan, ungan joyi juda nobopligini darrov fahmladi. Uning qismatida kun ko'rmay nobud bo'lish yozilgandek edi. Aslida ham shu edi. Biroq u qismatga bo'y bermadi. O'ta darajada qayishqoq va chidamli tog' butalarigina o'sa oladigan bu muhitda yakka-yolg'izman deb turmadi. Avvaliga shu bir kaftgina tuproqqa mahkam tomir otdi. Baxtiga bu tuproq qum va mayda toshli yoriqqa tutash ekan. U ildizlari bilan paypaslanib dastlab o'sha tirqishni topdi. Tirqish quyiga cho'zilgan bo'lib, uning nazarida, zaminga tutashdek edi.

Zamin toshloq esa-da, unda tuproqli qatlam va tarmoqlar kam emasdi. U keyinchalik o'sha tuproqli tirqishlar bo'ylab ildiz otish barobarida, chor-tarafga novdalar yoydi. Yerga yetgan ildizlaridan yangidan-yangi nihollar chiqarib, tog'ning beshafqat iqlimi bilan tinimsiz kurashgan holda yashash va yashab qolish ko'nikB-malarini o'zlashtira bordi. Chiniqqani sari qayishqoqligi ortib, dara muyulishida yovvoyi jonivorlar orom oladigan ajoyib bir xilvatgohni yuzaga keltirdi. O'tgan vaqt davomida uning quchog'i ne-ne jonivorlarga boshpana bo'lmadi, yaralangan yoxud qarib-churib, umri poyoniga yetgan ne bir tog' jonivorlarining so'nggi nafasi shu yerda uzilmadi. Mana, ikki yildirki, qor qoplani Oqmanglay uning quchog'ini o'ziniki qilib olgandi. Lekin kekxa tol tagi uning muqim maskani emas, qo'nib o'tar, gohida bir necha kunlab qolib ketar joyi edi.

Kekxa tol Omonalining avzoyidanoq ne maqsadda tentib yurganini payqadi. Negaki, odam bolasi bu xilvat go'shalarda hech vaqt bekorga aylanishmaydi. U odam bolasidan qoplonni qizg'andi. Bu tomonda yilning har faslida tinimsiz esib turadigan tentak yel ko'magida novdalari bilan uning yelkalarini savaladi, odam bolasini o'z bag'riga qo'ymaslikka urindi. Ming afsuski, novdalarini qayirib-sayirib, ichkariga bosh suqqan bu odam bolasida tirishqoqlikdan tashqari, fahm-farosat degani mo'l edi, tevarakka birgina razm solishdayoq bu manzilni qoplon makon tutganini darrov angladi.

Biroq qoplonning qo'nalg'asini topishga muyassar bo'lgan Omonalini quvondi deb bo'lmasdi. Yaqin kishini ko'mgandek, bugun u juda g'amda edi. Nafsilamirini aytganda, shunday edi bu tomonga kelayotib, Gulasal yiqilib nobud bo'lgan jar tubida ramziy qabr bunyod etgandi.

Qizning tosh yuzasida qolgan qon dog'lari unga azaldan tinchlik bermay kelardi. O'sha tomonga borishni harchand istamasa-da, biroq xarsang yuzasidagi qoramtir qon dog'lari negadir tinmay uni o'ziga chorlayotgandek tuyulaverardi. U tezroq jala quyib, toshdagi qon dog'larini yuvib ketishini istardi. Biroq, aksiga olgandek, shir etgan yomg'irdan darak yo'q, ikkinchidan esa, tosh betidagi qon dog'lariga uncha-buncha yomg'ir kor qilmasligini avvaldan yaxshi bilardi. U nima qilarini bilmay, boshi qotib yurganida, birdan esiga katta yo'l bo'yidagi ramziy qabrlar tushib qoladi. Bu xil qabrlar yo'lda biror falokat tufayli nobud bo'lgan kishilarga belgi sifatida o'rnatiladi. Shuning uchun bugun tong-saharlab yo'lga chiqarkan, birinchi qilgan ishi qon dog'lari qorayib turgan chog'roq xarsang ustiga tosh qalab, ramziy qabr barpo etish bo'ldi. So'ng "qabr" poyiga tiz cho'kib, uzoq sukutga botdi. Mijjalarini yoshlagisi kelsa-da, negadir buning uddasidan chiqolmadi.

U shaharda, ya'ni Gulasalning qabri tepasida ham shu ahvolga tushgandi. O'shanda yig'laganda ham qizning tug'ishganlari yig'lagan, Irina yig'lagan. U esa tosh qotib turavergan. Buni qarangki, uning shundagi holatini Irina anglagan, bu falokatda o'zini aybdor sanab, ich-etini yeb yurgan Meliql tog'begi his qilgan va har ikkisi ham qo'llaridan kelganacha uni yupatmoqqa urinishgan. Holbuki, qizning jasadini shaharga olib ketishayotganida, ikkalasi ham unga ro'yxushlik berishmagandi. Birov unga "yur" yoki "qol" demagan. Garangsib, gandraklab o'zi mashinaga chiqib olgan. Qizning soyaboni keng shlyapasini qo'lga tutib, dam-badam uni yuziga bosib borgan. Qizning xonadonida esa shlyapani yo'qotib qo'ydi. Qo'lidan birov oldimi, yo o'zi biror yerda unutib qoldirdimi, hanuzgacha tuzuk eslayolmaydi. Oxiri Irinadan qizning suratini so'rab olib, iziga qaytgan.

U "qabr" boshida g'amga botib o'tirarkan, qo'ynini paypaslab, cho'ntagidan o'sha suratni oldi. Qizning kulib turgan siymosiga uzoq tikilib qoldi. So'ng surat yuziga ohista lab tekizmoqchi bo'ldi. Lekin qizga muhabbatini izhor etolmaB-gandek, suratni ham o'polmadi. Ichki bir iymanish bunga yo'l qo'ymadi.

Omonali shu tushkun kayfiyatda tog'lar aro yo'l tortgandi.

U kekxa tol tagini tajribali ovchilarga xos sinchkovlik bilan qayta va qayta ko'zdan kechiB-rarkan, tug'ma ovchi emasmi, baribir bir zumga bo'lsa-da, g'amdan chalg'idi. Toshdek og'ir yuragining bir chekkasida ov ishtiyoqi g'imirlab qoldi. U shunday ovchilar toifasidan ediki, unda ichki his qilish qobiliyati kuchli edi. Kekxa tol yirtB-qichning muqim qo'nalg'alaridan biri ekanini, agar qulay paytini topsa, uni shu yerda qo'lga tushirish mumkinligini tuyganidan so'ng, yana ikki kun uning yo'lini poylab, yirtqichning shu yerga qo'nib o'tishini, gohida esa uzoq qolib ketishini aniqladi. Shundan keyingina u Oqmanglayni ayni shu manzilda qo'lga tushirishga qaror qildi.

\* \* \*

O'sha kunning ertasi tongda ukasi Berdimurod yana bir o'lib tirildi.

U qo'ylarini toqqa haydab chiqarkan, narigi betda yoyilib yurgan Bozorqulning suruvi orasida o'ziga tanish qo'ylarni ko'rib, yuragi alamdan bir qalqib tushdi. Agar bu yerdan tezroq olislamasa, akasining jondek og'aynisini behudaga xafa qilib qo'yishidan cho'chib, qo'ylarini qichabroq haydadi. Supadek keng va yassi xarsang chetida qo'lidagi tayoqqa iyak tirab o'tirgan Bozorqul yo'talib o'zidan darak berdi, jo'rasi Omonalining hurmatiga, u bilan hol-ahvol so'rashgisi keldi. Biroq ichi tinalib turgan uka unga ro'yxushlik bermadi, o'lganining kunidangina bazo'r tirjayib, qo'l sermab salomlashgan bo'ldi-da, agar yetishibroq yurmasa, qo'ylari chor-tarafga tirqirab ketadiB-gandek, suruvi ortidan zipilladi. Sal uzoqlashB-gandan so'ng esa to'ng'illab, xumoridan chiqqincha so'kindi. Keyin bunga ham qanoat etmay, ichidagi bor dardu hasratini kimgadir to'kib-sochgisi keldi. Xudo ohini eshitdimi, Uchgaza betida donga to'ygan xo'rozday g'o'ddayib o'tirgan Hamidqul oqsoqol duch keldi.

Hamidqul oqsoqol har tong qo'ylarini o'zi yoyardi. G'iybatga suyagi yo'qroq bo'lgani uchunmi Berdimurodni o'ziga ancha yaqin tutardi. Yanada aniqrog'i, birovni tinglashdan ham ko'ra, chakak otishni juda xush ko'radigan bu bandaga bekorchi quloq kerak edi. Chunki uning eng yomon odati hech qachon hech narsadan ko'ngli to'lmas, har narsadan nuqson qidirishga usta edi. Zamon va odamlardan nolishga-ku sira suyagi yo'q. Agar suhbatdoshi o'zi kabi noshukr va nolakor kimsa bo'lsa, bas, oqsoqolB-ning kuni tug'adi g'iybat botqog'iga naq bo'g'zigacha botadi. U borliqqa, hattoki tevarakdagi cho'ng tog'laru ko'kdagi quyoshga ham istehzoli boqadi. O'rni kelsa, ularni ham yomonlashdan toymaydi. Dunyo aynigan, odamlar yomon deydi-yu, biroq o'sha yomonlardan biri o'zi ekanini xayoliga ham keltirmaydi. Agar birov shunga shama qilar bo'lsa, u oqsoqolning chin dushmaniga aylanadi. Hozir ham oqsoqolning nigohi go'zal, qirmizi tong shafag'ini yoxud dara tubida bamisli oppoq bulutday yastanib yotgan ertangi tumanning ulug'vor salobatini emas, yigit oldiga solib kelgan suruvB-dagi qo'ylarning odatdagidan ko'ra ancha kamligini payqadi. Nechunligini yaxshi bilsa-da, xuddi hech narsadan xabari yo'qdek, gapni aynan shundan boshladi.

E... bu... cho'g'i sal kamayibroq qoptimi, mulla Berdimurod? dedi yigitning ichidan ne bir qirindi o'tayotganini sezganday, bo'g'iq hiringlab. So'ng hazil yo'sinda qo'shib qo'ydi: Ey-y, senga yarashmabdi bu ish. Qo'y haydagandan so'g'in, mana, bizga o'xshab o'ru qirni to'ldirib haydash kerak-da. Bu to'rtta qo'ying yigit odamning ovora bo'lishiga arzimaydi.

Hali bizam o'ru qirni to'ldirib haydab qolarmiz, amaki! dedi Berdimurod hazilga toqati yo'qligini bildirgan ohangda, to'rsillab. Hozircha shu boriga qanoat qip turaylik-chi. Keyin bir gap bo'lar

Yo nasib! Hamidqul oqsoqol qavatiga kelib cho'kkan yigitning yelkasiga yengilgina shapatilab qo'yarkan, so'ng tusini keskin o'zgartirib dedi: lekin Sarkor lochin surluvni ikkiga bo'lib ko'p xato ish qildi. Bunday qimasligi kerak edi. Bekorga barakasini uchirdi. Bu deyman, akang Omonaliga uning mehri salgina balandroqmi deyman, emasam shuncha molni, ma senga, deb berib yuborarmidi. Men senga aytsam, mulk degani bunaqa taqsimlanmaydi, kishi boshiga qarab tengma-teng bo'linadi. Tag'in yana bilmadim. Bu kamdek, Omonali suruvga o'zi egalik qimay, uni oshnasi Bozorqulga topshirib qo'yibdi. Tavba, kishi o'z moliniyam birovga ishonadami. Bozorqul ming yaqin oshna bo'lgani bilan baribir begona-da, qoni bo'lak. Shunday bo'lgach, o'zganing moliga joni achib qararmidi. Mana, meni aytdi dersan, qishga qolmay yarimini o'ldirib beradi u.

Bu gaplar Berdimurodga o'qday ta'sir etib, o'tirgan joyida bejo tebrandi. Manglayini siqimlab, barmoqlari orasidan Bozorqul tomonga g'azabnok boqdi. Qani endi, chog'i yetsa-yu, akasiga qarashli qo'ylarni bitta qo'ymay uning suruvidan ayirib olsa, va agar bu ishiga monelik qilar bo'lsa, Bozorqul deganB-larining tumshug'iga boplab bir tushirsa. Biroq, ming afsuski, buning sira iloji yo'q otasi naq terisini shilgani yetmaganday, do'stiga qo'l ko'targani uchun, o'gay akasi bir emas, ikki karra kafanini bichadi.

Uning bor jur'ati shu kunlarda, mol achchig'i-jon achchig'i deya, o'zi kabi zimdan tutab, zimdan yonib yurgan enasi To'lg'onoyga zarda qilmoqqa yetadi, xolos. Shunga qaramay, uning past ketgisi kelmadi, ko'zlarini ola-kula qilib dedi:

Agar bittasi yitsin, Bozorqulning naq bo'g'zini yirtaman!

Oqsoqol yigitning ahvolini ko'rib, o'zicha andak insof qilgan bo'ladi. Boz ustiga, OmonaliB-ning tog'ma-tog'a sanqib yurishi o'zining iltimosi tufayli ekani esiga tushib qolib, g'iybatdan zo'r-bazo'r tilini tiyadi. Keyin esa barini unutgan holda, odatiga xos, istehzoli iljaygancha, zimdan o'tga kerosin seplashda davom etadi.

Mol akangniki bo'sa, nega endi sening keting kuyadi, a?

Berdimurod chuqur xo'rsingancha tog'larga alamB-nok boqadi. Misli qizil tug'dek ko'kka sanchilib turgan Qizilqoya cho'qqisiga bu safar uzoq tikilib qoladi va beixtiyor ko'z o'ngida quyidagi manzarani jonlantiradi: ana, yelkasiga miltiq osgan Omonali qoya yuziga tirmashgancha yuqoriga intilmoqda, yana bir oz harakat qilsa, qoya labidagi pastak archaga yetadi, archa shoxlari chayir, faqat qo'l yetsa bo'ldi, biroq oyoq tagidagi toshlar ancha omonat, ana biri ko'chdi, keyin ikkinchisi... Berdimurod voqeaning bu yog'ini tasavvur etishni harchand istamasa-da, qoya tubida akasining jonsiz jasadini ko'radi. U taomilga ko'ra, achinish lozimligini o'ylaydi. Biroq achinish qatori quvonchga o'xshash yoqimsiz bir hisni tuyarkan, o'zini juda yomon ko'rib ketadi. Qansharini qashlab, o'zini chalg'itishga urinadi. Biroq nogahon ko'zi yana Bozorqulning naridagi suruviga tushib, alami qayta junbushga keladi va dilidagi tiliga ko'chganini sezmay qoladi.

Buni hali ko'ramiz, kimga nasib etarkin!

Bu gap shu qadar sovuq ohangda aytilidiki, bundan hatto Hamidqul oqsoqolning eti junjikib ketdi. Shundan so'ng u tezda suruv haqidagi gapni bas qilib, shu kunlarda hammaning og'zida obdon chaynalayotgan mavzuga o'z munosabatini bildirishga tushdi.

Men otangga bir emas, ikki bor aytdim, dedi hamsuhbatini yomon vaziyatdan tezroq chiqarish niyatida, xuddi tomdan tarasha tushgandek qilib. Katta uldi kechiktirmay, hadaha uylantiring deb. Yo'-o'q, Sarkor lochin gapimga quloq somadi. Mana oqibat, akang shaharlik bir qizga elakishib, gap-so'zga qolib o'tiribdi. O'zimizda qiz quriganday, ilakishgan qizini qara uning, na urug'ini, na aymog'ini birov biladi.

Men senga aytsam, es-hushli qiz uyida o'tiradi, ilm qilaman-bilim qilaman deb tovma-tov sanqib yurmaydi. Ilm deganni asli tus bekorchilarga chiqargan. Mana, men bilan sen ilm qilmasak ham, qornimiz to'q, ustimiz but, binoyidek yashab yuribmiz-ku.

Menimcha, yanayam bilmadimu, o'sha shaharlik jibljibonni bu tomonga ajal boshlab kelgan. Emasam, bu tog'u toshda pishirib qo'yibdimi unga. Akang esa uyalmay-netmay uning dardida kuyib-yonib yuribdi. Lekin shu otanggayam qoyil emasman, omaydimi achchiq qamchiB-ning ostiga, nega meni elga sharmanda qilayapsan deb. Agar Omonalining o'rnida men bo'lganimdami, o'lganning ketidan buytiblar uv tortib yurmasdim, qishloqning so'lqillagan oldi qizlaridan birini shartta bovrimga tortardim-da, bor alamimni unutardim qo'yardim. Ay-y, bu yoshlarga gap uqtirib bo'maydi, bari aynigan!

Oqsoqol bir vaqtlar o'zini katta archa tagida kuchala yegan itday qilib tashlab ketgan Saragulning zurriyoti bo'lgani uchun ham Omonalini jini sevmas, har gapida uni chandib olishga urinar va shuning bilan birgalikda, qavatida xomush yer chizib o'tirgan yigitning dil yarasini beayov tirnayotganidan mutlaqo bexabar edi.

Allaqachon yigit yoshiga yetib, ko'zi qizarib yurgan Berdimurodning ahvoli shu kunlarda havas qilarli darajada emasdi. Agar

qo'yib bersa, duch kelgan qizil etakka yopishib, dunyoning narigi chekkasiga uloqib ketishga ham tayyor edi. Tunlari behudaga bolishni ezig'ilamay, ko'z ostiga olgan qizlaridan biriga og'iz solay desa, orada akasi turibdi shofday bo'lib. Aka turganda, kim ham ukaga qizini berardi. Bu turishi bo'lsa, akasi haliveri uylanadigan emas. Ana, yuribdi yetti yot bir begonaning hajrida kosovday kuyib.

U tizzasiga iyak tirab, tag'in o'sha noxush manzarani qayta ko'z oldiga keltiradi, ya'ni o'gay akasini qoya tubida tosh quchib yotgan ahvolda ko'radi. Qo'radagi jonliq ikkiga bo'lingach, enasi alam ustida pisillab, bu yetim o'lgur tov-povdan yiqilib o'lsa qaniydi, o'zim ko'kkinasini kiyardim, deganiB-dan beri shu kabi qora o'ylar tez-tez miyasida charx uradigan bo'lib qolgandi.

Ayni shu lahzada esa Omonali so'nggi hal qiluvchi qarorga kelib bo'lgandi. Uning rejasi anchayin jo'n, lekin ehtimolligi har tomonlama puxta o'ylangandi. Yigitning qoplonlar haqida qisman bilgani shu ediki, bu yirtqichlar, odatda, tong azonda hamda oqshomda ov qiladilar. Agar tongda ovlari baroridan kelsa, keyin kun bo'yi ini yaqinida yoxud qo'nib o'tishi mumkin bo'lgan biror ovloq go'shada hazmi taom qilib yotadi. Buning aksi bo'lsa, uni ma'lum bir hududda uchratish g'oyatda mushkul, o'lja ilinjida juda keng maydon bo'ylab tog'ma-tog' sanqib yuradi. Unga yana shu narsa ma'lum ediki, qoplonlar, agar ro'paro' kelib qolsa, odamdan ko'pam cho'chishavermaydi, sal ehtiyotsizroq bo'lishadi va oqibat, ayrim hollarda, ovchilarning oson o'ljasiga aylanadi. Shuningdek, har turdagi tirik jonzotda bo'lganidek, qoplonlar orasida ham o'ta tajovuzkorlari, ya'ni boltadan qaytmaslariyam uchraydi. U naqalarga tasodifan duch kelib qolsang, qo'lingdagi yarog'ing keraksiz matohga aylanib qolishi hech gap emas. Bunaqa qaltis paytda bilak kuching va belingdagi pichog'ingga tayanmoqdan bo'lak ilojing qolmaydi.

Qadimda ovchilar quchog'ida jon bergan qoplonB-lar, shuningdek, qoplonlar changalida umri poyoniga yetgan ovchilar ko'p bo'lgan.

Omonali yirtqichning qadam olishidanoq uning qanaqaligi va nimalarga qodirligini farqB-lay olish darajasiga yetgan ovchilar toifasidan emasmi, kuzatishlari mobaynida Oqmanglayning vujudida tiyiqsiz g'azab va alam yashirinligini, agar betma-bet kelib qolar bo'lsa, bu yirtqich hech balodan tap tortmasligini allaqachon payqab ulgurgandi. Shuning uchun ham unga qoplon makon tutgan keksatol yoqmayotgan edi. Negaki, yerga shokiladay osilib tushgan tol novdalari ortida ne bor, ne yo'q ko'rish va bilish juda mushkul edi. Yigitning tavsakkal qilmoqdan bo'lak chorasi qolmaB-gandi. Buning uchun esa unga itini ma'lum masofada tutib turadigan va zarur onda jonivorni ko'makka yo'llay oladigan hushyor bir ko'makchi zarur edi.

U bu ishga ukasi Berdimurodni tanlagandi.

Xuddi kutganidek, suruvdan chaqirtirib kelinB-gan ukasi bu ishdan bo'yin tovlay boshladi. Yo'q yerdagi bahonalarni tog'day qalastirib tashladi. Omonali yaxshi biladiki, o'rlik va birovga qayishB-maslik ukalarining yurgagiga tekkan tuzalB-mas kasallik, to jiddiy do'qlanmanguncha, yomon o'tdek taysallab turaverishadi. Odatda, bunaqalar o'zidan zo'rga kiprik qoqmay bo'ysinishadi, bundayB-roqlarni esa hatto odam o'rnida ko'rishmaydi. Agar qo'ltig'iga ozgina suv purkasang, hech o'ylab turmasB-dan, istagan odamingni yoqasidan bo'g'ishi mumkin. Bular o'z qilmishlari oqibati haqida o'ylamaydi va doimiy ravishda qo'shni qishloq yigitlari bilan yovlashib, tarafma-taraf bo'lib urishib yuradilar. Va bundan yovvoyi bir zavq oladilar.

Omonali royish bermay turgan ukasining to'ng aftiga ensasi qotib, zimdan razm solarkan, qizB-ning, huvv, birda aytgan gaplarini esladi.

O'shanda ikkisi cho'qqisida qadim qo'rg'on xaroB-basi joylashgan yuksak Ilono'rmas qoyasi yonidan o'tib borishayotgandi. Yigit bu toshqo'rg'on qaysi qavm, qaysi zamonga tegishligini bilmasa-da, tasavvur dunyosiga imkoni yetganicha erk berib, birdan ajdodlarini osmon bag'irlab suzib yurgan burgutlarga mengzab, bir maqtangisi kelib ketdi, dediki, qarang, ota-bobolarimiz quyidagi tog'u toshlarni pisand qilmay, xuddi burgutlarday cho'qqilarda yashashgan.

Qavatida xushhol odimlab borayotgan Gulasal bu gapidan so'ng bir lahzaga to'xtab, qo'rg'onga hayratu havas bilan boqishi lozim edi. U shuni kutgan va qizni bir lol qoldirmoqchi edi.

U bilimdon bu qizni hayratda qoldirishni doimo istar va faqat bunga hech imkon topolmay kelardi. Nega deganda, yigit mahbubasini tog'u toshlardan, hattoki otasi tengi tog'begidan qizg'ansa-da, hamisha ham yurak betlab yoniga kelavermasdi. U bilan uchrashmoq uchun doimo bahona qidirib yurardi. Bahona esa gohida anqoning urug'iga aylanardi. Ikkinchidan, ayrim oshiqdardek, hadeb suyganiga suykalaverish yigitning tabiatiga mutlaqo zid edi. Shuning uchun ba'zida Gulasalni uzoqdan kuzatish bilan kifoyalanar, gohida esa go'yo o'z yumushi bilan ketayotgandek, qizning oldidan bexos chiqib qolgan kishi bo'lardi. O'sha kuni ham atay uning yo'lidan chiqib, qizga hamroh bo'lgan va cho'qqidagi qo'rg'on xarobasi yonidan o'tishayotganida esa yuqoridagi ta'rifi bilan Gulasalni lol qoldirmoqchi bo'lgandi.

Biroq qizning jon o'rtovchi shiringina tabassumini demasa, u bildirgan fikrlar aytarli darajada yoqimli emasdi: "Siz meni tanganing bir tomoniga razm solishga undayapsiz, degan qiz qo'rg'on xarobasiga shunchaki bir qarab qo'yib. Agar uning ikkinchi tomonini o'girib qaraydigan bo'lsak, bu kabi xarobalar timsolida insoniyatning johilligi va nodonligini, qolaversa, yovuzligini ko'rish mumkin". Shundan so'ng qizi tushmagur yengil bir tin olib, uning ko'z o'ngida quyidagi dahshatli manzarani chizib bergan: qadimda bu tog'li o'lkada bir emas, bir nechta qavm umrguzoronlik qilgan, ular xuddi yer torlik qilganday, hamisha bir-biriga hujumlar uyushtirib turgan. U qavmni yer yuzidan yo'q qilmoq uchun bu qavm qo'lidan kelgan barcha yovuzlikni qilgan. Unisi esa, tabiiy ravishB-da, yo'qlikka yuz tutishni istamay, qoya cho'qqiB-laridan panoh qidirgan, qal'ayu qo'rg'onlar qurgan. Oqibat, ma'nisiz janglar qal'a devorlari yoniga ko'chib, o'tmishdan bizga mana shu xildagi toshxaroB-balar qolgan. Xullas, odam bolasi ko'k bag'irB-lab parvoz qilayotgan burgutlarga havas qilib emas, omon qolish va nasl-nasabini davom ettirish ilinjida cho'qqilarni makon tutgan. Achinarli jihati shundaki, talashib-tortishib, urushib-so'qishib bu dunyodan qancha qavmlar o'tmadi deysiz, cho'ng tog'lar esa insoniyatga tiriklik muvaqB-qatligini anglatmoqchiday, kaftidagi bu toshxaB-robalarni avaylab saqlab kelmoqda.

. Biroq odam bolasi bundan ibrat oladigan emas, hali-hanuz bir-biri bilan qirpichoq bo'lib kelmoqda. Bu kamdek, kimdir tabiatga, kimdir hayvonot dunyosiga zug'um qilishda davom etmoqda, nozikkina shaharlik bir qiz esa tog'lar bag'ridagi turfa o't-o'lanlaru rang-barang chechaklarga mahliyo bo'lib, ularni o'rganish umidida issiq o'rnini sovutib, tog'ma-tog' daydib yuribdi.

Qiz so'nggi gaplarini kulimsirab aytarkan, negadir "nozik" degan so'zga istehzoli ravishda alohida urg'u beradi.

Gulasal o'zining bu kabi qizg'in mulohazalari bilan yigitni, odatdagidek, dovdiratib, uni narigi sohilga itqitib yuborganini mutlaqo sezmaydi. Omonali narigi sohildan turib, uning yonib turgan charos ko'zlariga hadikli boqarkan, qizni o'ziga emas, o'zini qizga nomunosib ko'ra boshlaydi, yo'q, bu parivash mening uyimda kashta tikib, tappi yopib o'tiradigan qiz emas, bu o'zga bir dunyo malagi!

Omonali o'sha kuni ana shu tushkun kayfiyatda qishlog'iga qaytarkan, ukalari qo'shni Haydar ko'saning o'g'illari bilan jiqqamusht bo'layotgani ustidan chiqib, bot qizning gaplarini esladi. Ularning arzimmas narsani deb bu qadar quturiB-shidan, nodonligiyu benihoya qaysarligidan ham hayratlangan, ham g'azablangan va so'ng zaharni zahar kesadi, deya g'azab otiga minib, janjalni tezda

bartaraf etgan. So'z va nasihat ila emas, balki qamchining kuchi bilan bir-biriga yovvoyi yirtB-qichday hezlanayotgan taraflarni har tomonga tumtaraqay qilgan.

Hozir ham u o'ziga bo'y berishni istamay, to'rsayib, taysallab turgan ukasining anchayin sur va o'r afti-angoriga qiziqsinib boqarkan, uning to'ng basharasida bir-biriga beomon qirg'inlar keltirib, qoya cho'qqilaridagi toshqo'rg'on xarobaB-larida o'z izini qoldirgan o'sha qadim odamlar qiyofasini ko'rganday bo'ldi. Axir shu ukasi emasmi, Haydar ko'saning o'zidan battar ahmoq o'g'illaridan biriga pichoq o'qtalib, darvozasini urib sindirgan.

Omonali miyasiga kelgan bu o'y tufayli ukaB-sini yomon ko'rib qolishidan cho'chiganday, tezda hovli burchagida bog'liq turgan itiga ko'z tashlaydi. Boshini oyoqlari ustiga qo'ygancha, go'yo ov shovurini sezganday, o'ziga umidvor tikilib yotgan Bo'ynoqB-ning qarashlaridan ko'ngli xiyol oroyish topib, tez bo'l, deya gapni qisqa qildi.

O'gay akasining izmiga bo'ysinmoqdan bo'lak iloji qolmagan Berdimurodning manglayi tiriB-shib, g'ijining, nihoyatda hushsizlik bilan bir Omonaliga, bir uning eski belbog' bilan chandilgan chap bilagiga qararkan, ichi qizib, nima gap, deya so'ramoq istaydi. Biroq akasidan jo'yali bir gap chiqmasligini anglab, tilini tiyadi.

Bu kechagi olishuvning asorati ekanini boshqalar qatori u ham bilmasdi.

\* \* \*

Omonali oqshom Sangtoshdan enayotib, archazor qiyalik etagida Asilbekka duch kelaman deb sira o'ylamagandi. Avvaliga raqibining bu tomonlarda daydib yurganidan g'azabi keldi, so'ng atay yo'lini to'sib chiqqanini payqab hayrati toshdi. Nega deganda, Asilbek hafta burun tiz cho'kib yalingan g'animga sira o'xshamasdi. Ko'zlari yovuzona chaqnaq, tor so'qmoqda oyoqlarini kergancha, g'alati bir alfozda turardi. Shunga qaramay, o'zidan o'n odimcha berida hayron to'xtagan Omonalining o'tkir nigohiga bardosh berolmay, baribir hayajonini bildirib qo'ydi.

Omonali darrov sezdi, qarshisida turgan g'animi nimaningdir qattiq ta'sirida, aks holda qarshisiga yurak betlab chiqolmasdi. O'z navbatida, o'rtada o't chiqishi muqarrarligini anglab, tanida qasosga undovchi yengil bir titroq qo'zg'aldi. Lekin birinchi bo'lib gap boshlashni xayoliga keltirmadi. Muddoang nima o'zi, deganday o'qrayib turaverdi.

Asilbek bunday qarasaki, raqibi haliveri churq etadigan emas, turibdi xoda yutgandek qaqqayib, shuning uchun ilondek vishillab dedi:

Avval miltig'ingni tashla, agar yigit bo'sang! Ko'rib turibsan menda qurol yo'q.

Omonali o'zi sezmaganda holda, g'ayritabiiy bir itoatkorlik bilan yelkasidagi miltiqni yonidagi kulrang toshga suyab qo'ydi.

Menga qara! dedi Asilbek uning bu harakatidan qanoat hosil qilgach. Nega sen yo'q yerdagi tuhmatlar bilan uyimga bostirib bording, elga meni sharmanda qilding, a?! Ko'ngling to'la gumon ekan, hadaha boshimga miltiq ko'tarib bormay, biror ovloqqa chaqirsang bo'lardi-ku.

Boshqa bir odamga uning bu gaplari jo'yalidek tuyulishi mumkin edi. Biroq Omonali uning tullakligidan boxabar emasmi, arqonni uzun tashlab, g'anining da'voyu dostonlarini jimgina tinglashni ma'qul topdi.

Asilbek ikki qishloq bolalari o'rtasida janjalni qo'zg'ab qo'yib, so'ng o'zi suvdan quruq chiqib ketganiga bir emas, bir necha bor guvoh bo'lgandi. O'shandayam u ham g'arlik, ham peshgirlik qilib, butun aybni qarshi tomonga yuklashga uringandi. Biroq Omonalini ajablantirgan narsa bu emas, oradan hafta o'tib, uning tuyqusdan yo'lga ko'ndalang bo'lishi edi. Nimadan bunchalik ta'sirB-landi ekan bu?

Omonali xayoliga keltirmasdi, hafta burun g'animini tiz cho'ktirib ketishi qo'shni qishloq yigitlari, ayniqsa Asilbekning jo'ralari nafsoB-niyatiga juda qattiq tekkandi. Qishloqni sharmanda qipsan deya, unga ko'z ochirmay qo'yishgandi. Borib oraochdi qilib kelmasang, bu qishloqdan quri, deyishgandi.

Asilbekning o'ziga qolsa-ku, o'lsa-da OmonaliB-ga ro'paro' bo'lmasdi. Negaki, o'z aybini yaxshi bilardi u. Biroq bu to'g'rida jo'ralariga og'iz ocholmasdi. Agar aytar bo'lsa, ularning o'zi surobini to'g'rilab qo'yishardi. Shuning uchun uning oldida birgina yo'l raqibidan kaltak yeb bo'lsa-da, sha'nini himoya etmog'i va ko'kargan afti-angorini ulfatB-lariga bayroq qilib ko'rsatmog'i lozim edi. Uning bor botirligi shundan, ya'ni qanday qilib bo'lmasin jo'ralari huzuriga yorug' yuz bilan qaytishdangina iborat edi. U shu tobda o'z sha'ni va g'ururini tiklashni o'yarladi-yu, lekin iflos xatti-harakati tufayli bir banda fojeali tarzda yo'qlikka yuz tutganini xayoliga ham keltirmasdi. Bundan vijdoni tariqcha og'rimas, qaytamga gezargan aftida, sen bola, meni bekorga ranjitding, degan iddaoli ifoda zuhur edi. Qansharidan esa qiz bergan zarba izi hanuz ketmagandi.

O'sha kuni u bir urinishdayoq niyatimga yetaman deb o'ylagandi. Maqsadiga yetishiga hatto bir bahya qolgandiyam. Biroq qiz nozik ko'ringani bilan juda chayir ekan, qanshariga tosh bilan urib, uning changalidan osongina sirg'alib chiqib ketdi. U qoya yoqalab qochib borayotgan qizning ortidan biroz yugurgan bo'ldi-yu, so'ng xuddi qilmishini birov ko'rib qoladigandek, tezda o'zini archalar panasiga oldi va yorilgan qansharini tutgancha shaloq so'zlar bilan rosa so'kindi. Qachonki Oqartosh o'zaniga tushib qolgan qizning qattiq chinqirig'ini eshitB-gandan so'nggina ne mudhish fojeaga sabab bo'lganini fahmlab, oyog'ini qo'lga oldi. Odamlar ko'ziga tashlanib qolmaslik uchun pana-pastqamlardan biqinib-siqinib, qishlog'iga jo'nadi. Agar biror yaqin sirdoshi shu haqda gap ochgudek bo'lsa, oyoq bilan tepmadim, qo'lim bilan turtmadim, Oqartoshga o'z oyog'i bilan borib tushdi, deya o'zini aybdor sanamasligi tayin edi. Lekin qarshisida hanuz so'zsiz-sadosiz turgan Omonaliga nisbatan bo'lgan kek-ginasi tog'dan-da yuksakroq edi. U, nega uyimga bostirib bording, degan da'voga shu qadar mahkam yopishib olgan ediki, nazarida, buning uchun Omonalining etini tilimlasada kamdek edi. Faqat birinchi bo'lib qo'l ko'tarmoqqa uning jur'ati yetmayroq turardi. Agar Omonali hamla qilar bo'lsa, bamisli yovvoyi mushukday big'illab tashlanishga hoziru nozir turardi.

U tabiatan baquvvat edi, lekin Omonali undan ko'ra bardam va vazminroq edi. Turgan gap, bosiq odamning qo'zg'almog'i uchun achchiq-tizziq gaplar tizimi kerak. Bunday gaplarga esa Asilbekning suyagi yo'q edi. U do'q-po'pisalari behudaligini sezgach, Gulasalning pok nomini balchiqqa belab, shunday bir gap qildiki, Omonali deganlari chayon chaqqanday sakrab ketdi.

Ular avval obdon mushtlashdilar, so'ng tor so'qmoqni to'zg'itib rosa olishdilar...

Omonali olisha-olisha, oxiri o'ziga qarshilik ko'rsatmoqqa chog'i yetmay qolgan Asilbekning oyog'ini osmondan keltirib yerga urdi, so'ng tumshug'iga boplab ketma-ket bir necha musht tushirdi. Raqibi ortiq qimirlamay qolgach esa, asta oyoqqa qalqib, tosh tilib yuborgan bilagini tutgancha, toshga suyab qo'yilgan miltig'i yoniga bordi. Uni qo'lga oldi. Lekin o'zida oldingi o'tli qasosni raqibini otish istagini tuymadi. Nimaga deganda, yerda cho'zilib yotgan g'animi o'qqa emas, hatto tuzukroq tepkilashgayam arzimmasdi.

O'zining yerdagi tezakchalik qadri yo'qligini namoyish etganday, ana, so'qmoqqa ko'ndalang tushib yotibdi. Shunga qaramay, Omonali miltig'i milini Asilbekka to'g'rilashdan o'zini tiyolmadi. U dustaman tushib yotgan raqibining kuragini mo'ljalga olarkan,

beixtiyor ko'nglidan quyidagi olovli o'ylar o'tdi: "U o'ziga o'xshagan dilbar o'g'il-qizlar tug'ib berishi mumkin edi! Undan boshlangan avlodlar ipi cho'zilgandan cho'zilib, bu olamni chirmab olishi mumkin edi! Lekin sen mal'un tufayli uning hayot ipi qoq tubidan chirt uzildi! Butun boshli bir avlod tug'ilmasdan zavolga yuz tutdi!" Omonali o'zining bu o'ylarini otash iboralarga jamlash niyatida lab juftlarkan, so'nggi daqiqada fikridan qaytdi. Negaki, bunday tashbehnlarni anglab yetmoq uchun kishi, kam deganda, o'zidek bo'lmog'i kerak. Asilbek kim nodon bir jonzot, ursang, yaralangan buqaday bo'kiradi, quvsang, kaltak yegan qo'tir itday g'ingshib qochadi. Odatda, Gulasal bundaylar haqida, Xudo yaratishga yaratib qo'yib, so'ng o'zi hayron qolib yurgan kimsalar, derdi. Ha, u teran mushohada yuritibgina qolmay, fikrlarini obrazli yo'sinda ifoda etishgayam usta edi. Omonali uning ayni shu jihatin qadrlar, o'z navbatida, cho'chirdi. U qiz bilan uchrashgan kezlari o'zini tog'da kutilmaganda gavharga duch kelganu, biroq toshlar orasida jilo berib turgan o'sha gavharni qo'lga olmoqning hech evini topolmayotgan odamdek his etardi. Ming afsuski, Asilbek uning gavharini oddiy tosh o'rnida qabul qildi va harakatlari ham shunga yarasha bo'ldi. Mana endi, qilmishiga yarasha jazosini olib, yotibdi tosh yuzini qizil qoniga bo'yab.

Asilbek qon tuflab, turmoqqa qurbi yetib-etmay yerparchin bo'lib yotarkan, dunyoda ojizona bir tarzda yer iskab yotishdan yomoni yo'qligini ilk bor angladi. Shunda o'zi tomonidan zo'rlangan yaqin og'aynisining ayolini esladi. Sho'rlik juvon nomusdan yer bag'riga singib ketgudek bo'lib izillarkan, yakkash, endi nima qilaman, el orasida qanday qilib bosh ko'tarib yuraman, buytiblar yashaganimdan ko'ra o'libgina qo'ya qolganim yaxshi emasmi, derdi. Asilbek xas-xashakka qorishib yotgan ojiza tepasida hirsini qondirganidan mamnun holda turarkan, yo'q yerdagi tuhmatni aytishdan immanmagan: "Agar ering burnog'i yili ammamning qizi Lolani zo'rlab qo'ymaganida edi, senga barmog'imning uchini ham tegizmasdim. Jigarim uchun o'ch olay deb qildim bu ishni! Sen ko'pam vahima qilaverma, bu sir o'rtimizda chirydi. Ana, ammamning qiziyam oilasi va bola-chaqasini o'ylab, butun dardini ichiga yutib, tinchgina yashab yuribdi-ku". Buni qarangi, bu gapdan keyin o'laman-kuyaman deb yotgan juvon birdan sergak tortgan, so'ng avval zinokor erini, keyin eriga qo'shib dunyodagi barcha erkak zotini tutoqib qarg'amoqqa tushgan. Uning qarg'ishidan hech bir gunohi yo'q Lola ham benasib qolmagan. Asilbekning qilmishi haqida esa birovga churq etmagan, etolmagan.

Asilbek, yer hidlab yotgan esa-da, ayni damda o'zini g'olib sanardi. Axir u qo'rquvni yengib, raqibiga ro'paro' bo'lmoqqa jur'at etdi-da. Ana endi u qishlog'iga ko'kargan yuz bilan qaytarkan, o'laqolB-sa, kaltak yedim, demaydi, tengma-teng olishdim, deya rosa og'iz ko'pirtiradi. Darvoqe, buning unchalik ahamiyatಿಯam yo'q, muhimi, u raqibi bilan orani ochib oldi. Hozircha raqibi qayta tirg'alib qolmasligi uchun bir-ikki voy-voylab qo'ysa zarar qilmaydi.

U xo'jako'rsinga inqillar ekan, o'ziga to'g'riB-langan miltiqqa ko'zi tushib, joni tovoniga tushib ketdi. Yer quchib yalinay, yolvoray degan joyida, haytovur, Omonali qurolini pastga tushirdi. Bunga javoban esa Asilbek cho'zib-cho'zib voy-voylab qo'ydi. Omonali bu olishuvda o'zi kutgan intiqom hissini tuymadi. Qaytamga jirkanch bir tuyg'uni, ya'ni katakdan tovuq o'g'irlagan sayoq itni kaltakB-laganday his qildi o'zini. Kimsasiz biron joyga bosh olib ketgisi keldi. Binobarin, shusiz ham u kimsasiz makon tog'u toshlar quchog'ida edi, qochib yana qayerga borardi deng.

Manovu nimaning qoni ekan, a?

Oldinda o'z o'yi, o'z xayoli bilan ketayotgan Omonali istamayroq ortiga o'girildi. Tengqurlari orasida o'zini tuzuk ovchi sanaydigan Berdimurod kecha Asilbek cho'zilib yotgan yerda sergak tik qotgan, oqish siypaq tosh ustida qotib qolgan qon dog'lari qorayib turardi.

Biror hayvon-payvonning qoni bo'lsa kerak-da, dedi Omonali tundlik bilan.

Biroq ukasi tevarakdagi izlarga qaraboq, bu yerda qandaydir olishuv yuz berganini allaqachon taxminlagan emasmi, o'zining topqirligini tezroq namoyish etish uchun hovliqibiroq dedi:

Yo'q, bu hayvon qoni emas, bu...

Yo'q, u aynan hayvon qoni! Omonali tuyqusdan qizishib, shartta uning gapini bo'ldi. O'ta yirtqich hayvonning qoni!

Tevarakdagi manovu izlar boshqacha ma'noni berayapti-da, aka, dedi hanuz yerdan ko'z uzmay turgan Berdimurod sira bo'sh kelgisi kelmay. Bu yerda birov birovni so'yib ketganday...

Unda qarab ko'r, jasadiyam topilib qolar.

Berdimurod tajribali izquvarlarday tevarakni sinchkov ko'zdan kechirgan bo'ldi va hatto bu ishga naridagi archazorda iskananib yurgan Bo'ynoqniyam jalb etmoqchi bo'ldi. So'ng, odatdagidek, erinchoqB-ligi qo'zib, bariga qo'l siltab dedi:

Balki haqiqatanam biror hayvon-payvonning qonidir.

Topding, chindanam u hayvon qoni! dedi Omonali ham.

Aka-ukalar shu ketishda olis dara bag'ridagi keksatolni qora tortgandi.

Ko'kka bo'y cho'zgan yuksak tog'lar esa bamisli chumolidek g'imirlab borayotgan bu ikki jon boshqa bir jonzodning jonini olmoq o'yida borayotgani bilan mutlaqo ishi yo'q, o'sha-o'sha sokin mudrardi.

\* \* \*

Omonali keksatol qad rostlagan Bo'zbuloq darasi muyulishiga yetgunga qadar, o'z rejasi haqida ukasiga churq etib og'iz ochmadi. Qachonki, muyulishB-dan ancha beridagi tomdek ulkan xarsangtosh poyiga yaqinlashgandan so'nggina, yarim yo'ldayoq tizginga tushgan Bo'ynoqning arqonini ukasiga tutqazarkan, bosiqlik bilan maqsadini anglatdi, dediki, bu yirtqich anchagina alamdiyda va o'ta tajovuzkor, hozir obdon qornini to'yg'azib, anovu ulkan o'tovsimon tolning panasida cho'zilib yotgan bo'lishi mumkin. Agar avval itni qo'yib ko'rsak, keyin uning changiniyam tutib bo'lmaydi. Eng chatoq tomoni, sezdirmay yaqinlashgan odamga to'satdan tashlanib qolishiyam mumkin. Bunday holda otishga ulgursang ulgurding, ulgurmasang keyin dodingni Xudoga aytaverasan. Gapning qisqasi, "hayt" deyishim bilan itni bo'shatasan. Bo'ynoq aqlli jonivor, nima qilishini o'zi yaxshi biladi, yirtqichning chotiga yopishib, menga madad beradi. Biroq bir soniya ham hayallay ko'rma. Hayallasang, men uni emas, u meni bir balo qilib qo'yishi mumkin.

Bu gapdan Berdimurodning yuragiga qo'rquv ingan bo'lsa-da, sir bermaslikka tirishdi.

Uning shu yerdaligiga ishonchingiz komilmi? dedi keksa tol tomonga hadikli boqib.

Bo'lmasligiyam mumkin, dedi Omonali etigi qo'njidagi shopday pichog'ini beliga taqarkan. Lekin men uni ancha-buncha o'rgandim, ko'nglim sezib turibdi, u aniq shu yerda.

Bo'lmasa-chi, unda nima qilamiz?

Unda vaziyatga qarab ish tutaveramiz.

Yurar ekanmizda tog'ma-tog' sanqib.

Aka kerak bo'lsa yurasan-da! Omonalining manglayi tirishib, unga yomon qarab qo'ydi. Agar senga jigar kerak bo'lmasa, marhamat, hoziroq qorangni o'chirish mumkin!

Yo'g'-ay, nimalar deyaapsiz, aka.

Unda gapni ko'paytirma! Omonali qo'lidagi yaroqni yana bir karra sinchkov ko'zdan kechirdi. Takror aytaman, u juda qahrli va tajovuzkor yirtqich. Hushyor bo'l-a, tag'in men ham rahmatli Mirsalim ovchining holiga tushib o'tirmayin. Aytgancha, uni shu atrofda nobud bo'lgan deyaishadi.

Bo'lishi mumkin, deya yelka qisdi BerdiB-murod. Ammo men chollarning o'tirigiga ko'pam ishonavermayman.

Bu o'tirik emas...

Uzoq yillar burun yashab o'tgan bu afsonaviy ovchining ta'rifini ular, qish oqshomlari sandal atrofida, ko'p va xo'p eshitishgan. Aytishlariga qaraganda, Mirsalim ovchi deganlari alp kelbatli, chumchuqning ko'zidan, qarq'aning tilidan bexato uradigan zo'r mergan bo'lgan ekan. Afsuski, shunday odam biron-bir quturgan ayiqning emas, jasad o'rtacha itnikicha kelmaydigan qandaydir jangari bir qoplonning changalida nobud bo'lgan. Biroq endigilar bu gapga ko'pda ishonishavermaydi, ertak deb o'ylashadi. Omonali esa zabonsiz tog' jonivorlaridan har baloni kutish mumkinligini o'z tajribasidan yaxshi biladi. Buni hatto yon qo'shnisining targ'il mushugi misolida ham ko'rgan. O'shanda haybatli bir it bostirma tagidagi bolaB-lariga tashlanganida, tabiatan ancha yuvosh bo'lgan ona mushuk qochmagan, eshakday keladigan it bilan olishib, uning changalida jon bergandi. Ona mushukning o'sha paytdagi jangovar holati, itga big'illab tashlanishlari va so'ng asta jon bergani haligacha uning ko'z o'ngidan ketmaydi. Qishloq odamlari esa ona mushukning g'ayritabiiy harakaB-tiga emas, shunchaki voqeaga urg'u berishgan, ya'niki falonchanning mushugini pistonchanning iti g'ajib tashlabdi, tamom-vassalom.

U bir mushuk ekan, vajohatda tengsiz bo'lgan qoplonidan bundan battaB-rini kutish mumkin emasmi.

Avval itni qo'yib ko'rsak-chi, aka, dedi Berdimurod ovozi titrabroq.

Itni qo'ysak, keyin uni qayerdan qidiB-ramiz...

U ukasi bilan itini xarsangtosh poyidagi bir parcha yalang yerda qoldirib, o'zi yengil shabadaga yuz tutgancha, butazor oralab keksatol tomon jildi. Oriqliqdagi yuz odimdan oshiq o'ngur qalin butalar bilan qoplangan bo'lib, bu tomondan keksatolga yaqinlashish xiyla qulay edi.

Akasi butalar orasida ko'zdan g'oyib bo'lishi bilan Berdimurod boyagi hadik va qo'rquvni deyarli unutdi. Qoplonning keksatol tagida cho'zilib yotganiga ishongisi kelmadi. Omonalining hademay, la'nati, bu yerda yo'q ekan, deya qaytib kelishini kuta boshladi. Akasining shuncha tayinlashiga qaramay, hushyorlikni xayolidan mosuvo qilgan holda, oyog'i tagidagi to'nkadek toshga bamaylixotir joylashib o'tirib oldi.

U butazorga tikilgan ko'yi, quloqlarini ding qilib turgan Bo'ynoqqa mehri iyimayroq ko'z tashlarkan, hech sababsiz uni so'kib qo'ydi. Qo'radagi jonliq ikkiga bo'lingan kundan e'tiboran akasiga bog'liq hamma narsa, hatto shugina it ham unga begona tuyulib qolgandi. Bu yetmagandek, bugun sahardanoq u enasi Erkinoyning odatdagi ming'ir-ming'iri va pisir-pisiriga keragidan ortiq to'yingandi. Kamini Hamidqul oqsoqolning "nasihat"lari to'ldirgandi. Erkinoy deganlari pastkashlikning tirik timsoli edi, u har kuni ovga ketayotgan o'gay o'g'liga oq yo'l tilash o'rniga, iloyim tovdan o'liging qaytsin, deya pisillab qarq'ab qolardi. Berdimurod ham shu onaning bolasi emasmi, yerga bosh egib turgan keksatol tagidan qoplonning emas, darg'azab ayiqning irillab chiqishini tasavvur qila boshladi. Ana, u akasiga hamla qilib, tog'u toshlarni qaldirata boshladi...

Har nechuk, ukada xiyol bo'lsa-da, insof bor edi, voqeaning u yog'ini xayolidan quvlashga tiriB-shadi. Bezovtalana boshlagan itning tizginidan mahkam tutib, uni tinchlantirishga urindi.

Keksatolni qoralab, pusib borayotgan OmonB-alining o'zida ham qoplonning shu yerdaligiga unchalik ishonchi yo'q edi. Lekin aksariyat ovchilarga xos ichki bir sezgi bilan u yerda qandaydir tirik jon mavjudligini his etib turardi. U nima, qoplonmi yo to'ng'izmi yoxud qanoti shikast yegan biror-bir omadsiz burgutmi yo o'z soyasidan o'zi hurkadigan shalpanquloq quyonmi? Buni u bilmasdi, bilolmasdi.

Uning yuragi sezgan narsa quyon yoki omadsiz bir burgut emas, keyingi paytda yolg'iz qolgaB-nidanmi, o'ta serzarda hamda o'ta beshafqat joniB-vorga aylangan Oqmanglayning aynan o'zi edi. U tongdanoq qursog'ini to'yg'azib, odaticha, hazmi taom qilish niyatida keksatolni qora tortgandi.

Keksalik sarhadini endigina hatlagan bu jonivor avvalgi holatining aksi o'laroq ko'pam hayotga ishtiyoqi yo'q va vaqt o'tgan sari, o'lar ho'kiz boltadan qaytmas, deganday qandaydir jizzaki va tajovuzkor bir maxluqqa aylanib bormoqda edi. Shu boismi, gohida o'limni uning o'zi qidirib qolardi. O'lim esa undan nari qochardi. U o'limga chang solgisi, piypalagisi va oxirida o'tkir tiriB-noqB-lari bilan uni tilkalab tashlagisi kelardi. O'lim ne holat, ne tusda yuz ko'rsatishini bilmasa-da, unga ro'paro' kelmog'iga juda oz fursat qolgaB-nini yuragi sezib turardi.

U bir vaqtlar bu cho'ng tog'larning sultoni, chog'roqqina qoplonlar to'dasining yetakchisi edi. Biroq xiyolgina kuchdan qola boshlashi bilan hamjinslari uni tark etishdi. U yolg'iz qolgan zahotiyoy bu nurli olam o'z tarovatini yo'qotganini darhol angladi. Uning keyingi kunlari ham biror quvonchli onlarni va'da qilolmasdi. Shuning uchun u nafs ilinjida uchragan jonga changal solishga urinar, gohu esa ermakka o'ldirardi. Nafs uni harakatga undab, tinchgina o'lmog'iga izn bermaB-ganidek, to'q kezlarida esa doim bir xil tush ko'rar va tushida ulkan bir qoplon tinmay uni o'ziga chorlardi. U tomonga faqatgina kulrang va ko'kimtir tusdagi o'lim vodiysi orqaligina o'tish mumkin edi.

Bu vodiya tushmoq uchun avvalo o'lmoq kerak edi.

O'limdan esa haligacha darak yo'q edi.

Oqmanglayning ko'zi ilingan ekan, ichki bir turtkidan yengil seskanib, uyg'onib ketdi va mudroq nigohlari ila o'limni ko'rdi. Ana, u odam shaklida asta yaqinlashib kelmoqda. Ularni yergacha egilgan tol novdalarigina ajratib turardi. "O'lim" uni ko'rmas, Oqmanglay esa ohista shitirlayotgan tol yaproqlari orasidan uni aniq-taniq ko'rib turardi.

U yolg'izlikdan, binobarin, yashashdan juda horigan edi. Shu sabab, ajaldan cho'chimadi. Bor kuch-quvvatini baquvvat panjalariga jamlarkan, o'zi tomon g'oyatda ehtiyotkorlik bilan bir-bir bosib kelayotgan "o'lim"ni piypalab va tilkalab tashlash ishtiyoqida sakrashga hozirlana boshladi. Buning uchun unga soniyaning yuzdan bir ulushi yetib ortdi.

Qoplonning yashin yanglig' harakati o'lim timsoli bo'lmish Omonalini butunlay dog'da qoldirdi. U qo'lidagi miltiq tepkisini bosish u yoqda tursin, hatto "hayt" demoqqa chog'i yetmay, g'ayritabiiy bir sas chiqarishgagina ulgurdi, xolos.

Keksatol tomonda nimadir sodir bo'lganini it darrov sezdi. U bo'yniga bog'langan tasmaning ikkinchi uchini bilagiga o'rab-chirmab olgan Berdimurodni ilkis surgab-sudragancha, jon holatda olg'a tashlandi.

Bo'ynoqning izidan qoqilib-suqilib tol yoniga yetib kelgan uka o'ta dahshatli manzaraning ustidan chiqdi: bel va umurtqasi



This is not registered version of TotalDocConverter

sindirgan qopqonlarni ushbu yerga yig'ning taquvvat bilaklari orasida, aniqrog'i, ko'ksida o'lib yotar, bo'yin tomirlari titib yuborilgan Omonali ham allaqachon bu yorug' olamni tark etib ulgurgandi.

Akam-a!

Biroq ukaning bu nidosida zig'ircha dard yo'q edi.

Buni sezgan keksa tol to'satdan qo'zg'olgan tentak epkinga yuz tutgancha, novdalarini sollantira-solB-lantira, azaliy marsiyasini boshlab yubordi.

Saldan so'ng unga it qo'shildi.